

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI» kafedrası

«HIMOYAGA RUXSAT ETILADI»

«____» _____ 2012 y.

Banklararo kreditlar hisobi va auditi
mavzusi bo'yicha yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etiladi»
Ilmiy rahbar: dots. Maxkamboev A.

«____» _____ 2012 y.

Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi
Axrorova Nargiza Madaminovna _____

T O S H K E N T – 2012

MUNDARIJA

Kirish	3
1-Bob.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida banklararo kreditlar hisobining nazariy asoslari	7
1.1.Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit siyosati va uning bank resurslarini joylashtirishdagi ahamiyati	7
1.2.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida banklararo kredit operatsiyalari hisobining nazariy asoslari	13
1.3. Tijorat banklarining kapitallaShuvi jarayonida kredit operatsiyalarini audit qilishning uslubiy asoslari	19
2-Bob. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar hisobining hozirgi holati va uni takomillashtirish	26
2.1. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlarni rasmiylashtirish tartibi.....	26
2.2. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish amaliyoti	31
2.3. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar hisobini takomillashtirish yo'llari	41
3-Bob. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kredit operatsiyalarni audit qilish metodikasi va uni mukammallashtirish yo'llari.	47
3.1. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlarni audit qilishda axborot ta'minot manbalari	47
3.2. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kredit operatsiyalarini audit qilish metodikasi	49
3.3. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlarni audit qilish metodikasini mukammallashtirish yo'llari.....	54
Xulosa va takliflar	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	64

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, tijorat banklari tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Respublikamizda tijorat bank tizimining uzluksiz rivojlanishi bozor munosabatlari sharoitidagi ob'ektiv zaruriyatdir.

So'nggi yillarda bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning umumiy kapitali, aktivlari va kredit qo'yilmalari, Shuningdek, depozit bazasining kattaligi ko'rsatkichlari yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Bu borada tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bank kreditlaridan foydalanish uchun kredit turlarini joriy etilishi yo'lga qo'yildi.

Bunda, Prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzasida "... 2011-yilda depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq, o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko'p mablag' jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani ayniqsa e'tiborlidir. Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va Shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir"¹ degan edi.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ushbu ustuvor vazifalarni bajarish tijorat banklari faoliyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar ba'zasini vujudga keltiruvchi buxgalteriya hisobini va uning uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Natijada, Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida sifat jihatidan yangi bank tizimi shakllantirilib, tijorat banklari zamonaviy bank operatsiyalarini bajarib kelmoqda. Zamonaviy bank operatsiyalarini amalga

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2011-йилнинг асосий якунлари ва 2012-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. ("Халқ сўзи" газетаси, 2012 йил 20 январь, №14 (5434)).

o'shish, ularni hisobga olish va hisobotlarda aks ettirishni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirishni talab qiladi. Respublikamizda so'nggi yillarda ushbu talablarni e'tiborga olgan holda tijorat banklari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha ancha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini xalqaro standartlar talabi darajasiga ko'tarishda qator echimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari va mutaxassislari tomonidan ushbu masalalarga etarli darajada e'tibor qaratilmayapti, Shuningdek, ularning ilmiy ishlari, darslik va o'quv qo'llanmalarida tijorat banklari tomonidan olingan kreditlarning buxgalteriya hisobi va audit hamda uni takomillashtirish masalalari etarli darajada tadqiq qilinmagan. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini, uning maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va audit muammolari bilan xorijlik olimlardan S.Ermakov, E.Konstantinova, V.Kursov, L.Usatova, M.Seroshin, A.Mertsalova, V.Klimovich, Marshall Xolman, L.Frey, Diana Mak Noton, E.Dolan, Z.Shirinskaya, T.Nesterova, N.Sokolinskaya, V.Gerasimchenko, V.Kolesnikov, L.Krolivetskaya, Shuningdek, Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan F.Mullajonov, A.Qodirov, Sh.Abdullaeva, A.Ibragimov, N.Jo'raev, M.Mamatov, F.Abduvaxidov, K.Navro'zova, Z.Umarovlarning ilmiy-o'quv-uslubiy ishlarida ham o'z ifodasini topgan hamda ular nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari nazariy va uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lsada, hozirgi paytda bozor munosabatlari va mamlakatimiz banklarining jahon iqtisodiga yanada keng integratsiyalaShuvi tufayli bank daromadliligini oshirish, banklar tomonidan olingan banklararo kreditlarni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishi va aniqligini ta'minlash bo'yicha bir qator muammolar mavjud. Shu sababli, ushbu muammolarning echimini topish

uchun tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini hozirgi holatini chuqur o'rganish va uni audit qilishda mavjud bo'lgan muammolarning echimini topish zarurdir.

Tadqiqotning predmeti TIF Milliy bank Toshkent shahar filialida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida TIF Milliy bank Toshkent shahar filialida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish tizimi faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditining hozirgi holatini tadqiq qilish, ularni takomillashtirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida banklararo kreditlarning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va ahamiyatini o'rganish;

- iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kredit siyosati, uning bank resurslarini joylashtirishdagi o'rnini audit qilish;

- tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini hozirgi holatini o'rganish va rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida tadqiq qilish;

- tijorat banklarida banklararo kreditlarni audit qilish;

- moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari (MXXS) talablariga muvofiq holda tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini texnik hamda tashkiliy jihatdagi muammolarini belgilash va bartaraf qilish bo'yicha takliflar berish;

- tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari (mhxa)ni keng qullash bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

-iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida banklararo kreditlarning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va ahamiyati o'rganildi;

-iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kredit siyosati, uning bank resurslarini joylashtirishdagi o'rni audit qilindi;

-tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini hozirgi holati o'rganildi va rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida tadqiq qilindi;

-tijorat banklarida banklararo kreditlar holati audit qilindi;

-moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari (MXXS) talablariga muvofiq holda tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini texnik hamda tashkiliy jihatdagi muammolari belgilandi va bartaraf qilish bo'yicha takliflar berildi;

-tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari (mhxa)ni keng qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar, banklar faoliyatiga oid Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Andozalari (MHXA), tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini tashkil qilish bo'yicha mamlakatimiz hamda xorijlik iqtisodchi olimlar asarlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqilgan tavsiyalar tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini bo'yicha hisob ma'lumotlari aniqligini ta'minlash uchun amaliy ishlar tarzida qo'llanishi mumkin. Bu o'z navbatida buxgalteriya hisobining ma'lumotlar berish va audit qilish vazifalarini mukammallashtiradi hamda banklar moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

1-Bob.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida banklararo kreditlar hisobining nazariy asoslari

1.1.Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida kredit siyosati va uning bank resurslarini joylashtirishdagi ahamiyati

Kreditlash bank ishining o'zagi bo'lib, uning sifatiga qarab bankning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Bunda, asosan, kreditlarni boshqarish jarayonining asosiy ahamiyat kasb etishiga sabab Shuki, uning sifati bank ishining samradorligiga bog'liqdir. Iqtisodchilar tomonidan jahon banklarining sinishi sabablarini tadqiq qilish Shuni ko'rsatayaptiki, asosan, banklarning sinishiga sabab – bank aktivlari sifatining pastligidir. Kreditning sifati kreditlash jarayonini boshqarishga bog'liq bo'lib quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi²:

- tijorat bankida mukammal ishlab chiqilgan kredit siyosati kreditlashtirish jarayonining mavjudligi;
- kredit portfelini optimal boshqarishning yo'lga qo'yilganligi;
- kreditlarni muntazam nazorat qilishning tashkil qilinganligi;
- bank tizimida ishlaydigan xodimlarning tayyorgarlik darajasi.

“Kredit siyosati” hujjatli kreditlarni boshqarish jarayonining poydevorini tashkil etadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan “Kredit siyosati” kreditlarni oqilona boshqarishning samarali yo'llaridan hisoblanadi. Ushbu hujjat bankning kreditlashtirish faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parametrlardan kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish va boshqarish bo'yicha ma'suliyatli bo'lgan bank xizmatchilari qo'llanma sifatida foydalanishlari lozim. Kredit siyosati bank boshqaruvi a'zolari, qonun chiqaruvchi, strategik qaror qabul qiluvchi shaxslarning xatti-xarakatini belgilab beradi hamda ichki va tashqi auditorlarga bankda kreditlarni boshqarish darajasining o'tish davrida, moliyaviy bozorlarga davlatning ta'siri kamaygan sharoitda, tijorat banklari ichki siyosatini o'zlari ishlab chiqishni keskin faollashtirishlari lozim.

² Ф.Абдуваҳидов. Тижорат банкларида бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. “Иқтисодиёт” нашриёти.-Т.: 2010й, 224 бет

Amaldagi Nizom³ga asosan bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank raxbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir". Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq, ob'ektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to'g'ri tuzish va olib borish, barcha bo'limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to'g'ri olib borishiga, yuqori risklardan qochishga, bank imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga asos hisoblanadi. Yaxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit riskini boshqarish va uni kamaytirishga yaxshi imkon beradi.

Kredit siyosatining zarurligi Shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko'p xodim ishlashidan qat'iy nazar, bankda bu siyosat bo'lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo'yicha unifikatsiyalashgan umumiy qoida va tamoyillarning bajarilishini, operatsiyalar bajarilishining ketma-ketligini ta'minlaydi. Bankning kredit siyosati bankning hamma xodimlari – kichik xodimdan yoki bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va echimlar to'plami deyiladi.

Kreditlash siyosati va uning samaradorligi to'g'ri kredit narxlari belgilangan sharoitda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Kredit siyosatini samarali olib borishda bank xodimlari bank mijozlarining mablag'larini kimlarga foydalanishga berish mumkinligini yaqqol bilishi lozim. Bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, kimga, qaysi sharoitlar bilan berilishini hal qilishi zarur. Biznesning Shunday

³ ЎзР МБининг "Тижорат банклари кредит сиёсатига қўйиладиган талаблар тўғрисида"ги Низом. 2000 йил 2 март

turlari borki, bank kredit bera turib ular bo'yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun xar bir faoliyat risk bilan bog'liq ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bankning kredit siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning, bank majburiyatlari bilan kapitali o'rtasidagi va boshqa ko'rsatkichlarning me'yorida bo'lishini taqazo qiladi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarning sifatini oshiradi. Shuning uchun kredit siyosatining asosiy maqsadi boshqaruv jarayoni, fondlarning etarliligi, risklarni sifat darajasi bo'yicha turkumlari, kredit portfelining balansi, majburiyatlarning tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o'zichiga olmog'i lozim. Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga mutsvofiq deb hisoblaymiz:

- bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog'liq masalalar;

- bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinbosari, kredit qo'mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati (eng ko'p kredit summasi va turlari);

- bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo'yicha jami majburiyatlari;

- kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;

- kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro'yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va hokazolar);

- kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;

- kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

- barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;

-eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish (ya'ni kredit summolari va bank yalpi aktivlarining eng yuqori nisbati);

-bank xizmat ko'rsatadigan mintaq, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;

-muammoli kreditlar tarkibi va auditi, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi.

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me'yorida amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to'g'ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xolos bo'lish, bank kreditlarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Shu bilan birga bir vaqtda kredit siyosati siyosiy, iqtisodiy va xuquqiy shartlarni hisobga olgan holda ancha yumshoq bo'lishi darkor.

Bank kredit siyosati bank resurslari, ularning joylashtirilish bilan chambarchas bog'liq. Bank resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag'lar, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlaridan tashkil topadi. Shuningdek, hozirgi kunda jalb qilingan resurslar ichida banklararo kredit xam alohida o'rin egallaydi. Depozitlar bo'yicha belgilangan foiz stavkalari, hamda boshqa bankdan olingan kredit uchun foiz stavkalari bank tomonidan beriladigan kreditning foiz stavkalari bilan bog'liq bo'ladi. Kredit siyosatining aniq va mukammal tayyorlanish va izohlanish xar bir bank uchun kreditlash jarayonini ijobiy tashkil etish uchun asos bo'ladi. Bank tomonidan to'plangan resurslarni to'g'ri va oqilona joylashtirish bankning kredit siyosatining sifatiga bog'liq bo'ladi. Kredit siyosati sifatiga va xolatiga qarab bank jalb qilgan resurslarini to'g'ri joylashtirish va oldindan ko'zlangan daromad olish imkoniyati yaratiladi. Har qanday tijorat banki kredit siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

-kredit qo'yilmalari hajmining o'mishini,

-risk yuqori bo'lgan operatsiyalarning odilona diversifikatsiyasini,

-qisqa va uzoq muddatli kredit qo'yilmalar hajmini keskin ko'paytrish va ularning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi⁴.

⁴ Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. Россия . - М.: ФОРУМ, 2010. – 192 с.

Shuningdek, kredit siyosati investitsion kreditlar salmog'ini oshirish, ustun darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi lozim.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos "kredit tili"ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samarali ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish bank faoliyati me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, uning qarzdorlari va aktsiyadorlari foydasini ko'paytiradi va faravonligini oshiradi. Aniq bir tijorat bankining kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilarni belgilab olinishi lozim deb hisoblaymiz:

- kredit risklari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baxolash va bartaraf etish;

- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy axvolini aniqlash kredit riskini bashorat qilish;

- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarini ishlab chiqish;

- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;

- kredit olgan mijoz bilan doimo aloqada bo'lib turish;

- kichik va o'rta tadbirkorlikni, dehqon va fermer xo'jaliklarni moliyaviy qo'llab quvvatlashdan iborat.

Bank tomonidan, xo'jalik sub'ektlarining aylanma mablag'lari etishmasligi, mavjud mablag'larning me'yoridan ortiqcha tayyor mahsulot qoldiqlariga jalb qilinishi, mablag'larning tayyor mahsulot sifatida qotirib qo'yish sabablarini o'rganib borish, zararga ishlayotgan va bankrotlik alomatlari ko'zga tashlanayotgan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvolini doimiy monitoringini tashkio qilish bank kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Kredit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlash va belgilashi lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo'yicha: tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qo'lylmalarni moliyalash va boshqa tarmoqlarga kredit berish, kredit turlari bo'yicha: "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash yoki kreditlashning boshqa usullarini qo'llashni belgilab berishi mumkin.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida raxbariyatga xabar berio'lari lozim. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tuShunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, Shuningdek, bank Boshqaruvi av Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichga olishi lozim. Kredit siyosatida qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Raxbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolariga yuklatilgan. Odatda tijorat bankining kredit siyosati yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topishi lozim:

- bank o'rni va obro'sini moliyaviy-borqaror banklar singari yaxshilash;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativlariga muvofiq darajada o'z kaptalining etarliligini ta'minlash;

-bankning samaradorligi va barqarorligini qo'llab-quvvatlagan holda uning daromadlarining maksimal shuvini ta'minlovchi aniq kredit va investitsiya siyosatini o'tkazish;

-strategik jihatdan muhim bo'lgan shahar rayonlarida yangi omonat kassalarini ochish bilan bog'liq bo'lgan bank tarmog'ini kengaytirish.

Kreditlash jarayonida bank siyosati bank oldidagi majburiyatlarni bajara oladigan mavjud yangi mijozlarni kredit resurslari bilan ta'minlash, sinf darajasidagi kreditlarni taqdim etishni kengaytirish hisoblanadi. Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda xalqaro standartlar miqyosida mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga intiladi. Shuning uchun bank kredit siyosatini asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritilgan:

-kreditlash to'g'risida qarorlar qabul qilishning barcha darajalari bo'yicha javobgarlikni taqsimlash;

-bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq belgilangan shartlarning mavjudligi;

-maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlilik, ta'minlanganlik va rentabellik asosida beriladigan kreditlarni majburiy nazorat qilish;

-bank boshqaruvining umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo'nalishlari siyosati (ya'ni depozitlar bo'yicha, investitsiya bo'yicha, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha va hokazo)ning uzviy bog'liqligidir.

1.2.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida banklararo kredit operatsiyalari hisobining nazariy asoslari

Bugungi kunda respublikamizdagi eng yirik va rivojlangan banklar ya'ni, Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy banki, Agrobank, Asaka bank, O'zsanoatqurilishbank, Ipotekabank, Ipak Yo'li bank, Hamkorbank va boshqa banklarda chet el banklarining mablag'lari to'g'ridan-to'g'ri va davlat kafolati ostida, kredit yo'nalishlari orqali yo'naltirilayotgan bo'lib, bank muassasalari

tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, Shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirilmoqda. Bizga ma'lumki, jahon moliya tizimida barcha moliya muassasalari o'z mablag'larini iloji boricha maqsadli yo'naltirishga, Shu bilan birga xavf-xatar darajasini kamaytirishga, yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligi va daromadlilikini oshirishga harakat qiladilar. Shu va boshqa sabablar oqibatida har bir moliya-bank muassasalarining o'z kredit siyosati ishlab chiqiladi. Bu kredit siyosati davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati bilan uyg'unlashib boradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib nafaqat respublikadagi mavjud moliya-bank muassasalarining, balki, xalqaro moliya-bank muassasalarining kredit siyosatini ham chuqur o'rganib, audit etib, uni respublikadagi shart-sharoitlar bilan o'zaro muvofiqlashtirish bugungi kundagi asosiy masalalardan biridir.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning samarali tizimi bankning yakuniy faoliyat natijasini to'g'ri o'rganishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu esa olingan natijalarning ichki va tashqi nazorati uchun juda muhim. Mazkur tizim tijorat banklarida buxgalteriya hisobining ikki ko'rinishidan, ya'ni boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobdan iborat⁵. Ma'lumki, moliyaviy hisob tijorat bankining davlat tashkilotlari, boshqa banklar, aktsiyadorlar va Shu kabilar bilan o'zaro munosabatlarini ifodalasa, boshqaruv hisobi bankning ichki boshqaruvi hamda nazoratining maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Moliyaviy hisobni tashkil etishda buxgalteriya hisobining umumiy qabul qilingan tuShuncha va tamoyillari mujassamlashgan bo'ladi⁶. Mazkur hisob yuritish hisob ob'ektlari va moliyaviy hisobotning holati hamda undagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni shakllantirishga xizmat qiladi. Tijorat banklarida moliyaviy hisob tizimini ishlab chiqish va qo'llash jarayoni ma'lum bir yo'nalishga asoslangan bo'lishi kerak. Moliyaviy hisob va hisobotning o'zaro bog'liq tizimini yaratish uchun buxgalteriya hisobining respublikada qabul

⁵ Ермаков, С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с. 2 экз.

⁶ Медведев М.Ю. Учетная политика организации на 2010 год: практическое пособие. Россия. М.: КНОРУС, 2010. – 248 с.

qilingan milliy hamda xalqaro andozalari qo'llaniladi. Bu esa moliyaviy hisob kontseptsiyasi ishlab chiqilishining asosidir. Bunday kontseptsiyani yaratish va uni bank amaliyotiga tatbiq etish uchun hisob yuritish ma'lumotlarini shakllantirish hamda ularni qayta ishlashning ierarxik tamoyili asosiga qurilgan modelni yaratish talab etiladi. Shu bilan birga ma'lumotlarni buxgalteriya hisobvaraqlarida umumlashtirish va tasniflashning faqatgina oddiy usullaridan foydalanish moliyaviy hisobda etarli emasligini ta'kidlash lozim.

Moliyaviy hisobning umumlashtirilgan modeli o'zida moliyaviy hisob masalalari va hisob ob'ektlarini baholash, moliyaviy hisobot hamda uni talqin qilishning boshlang'ich, umumlashtiruvchi va auditiv ma'lumotlarini mujassamlashtiradi.

Moliyaviy hisob yuritish tizimining samaradorligi uning tashkil etilishiga bog'liq. Shu sababli ham hisob yuritish ishlarining har bir bosqichi yakunlanganidan so'ng olinadigan ma'lumotlar buxgalteriya tomonidan ushbu tuzilmaga yuklatilgan funktsional majburiyatlarga muvofiq ravishda qayta ishlanishi kerak. Bunday majburiyatlarning eng asosiylaridan biri moliyaviy natijani to'g'ri aniqlashdir.

Moliyaviy hisobni tashkil etish tizimi turli hisob yuritish ob'ektlari, boshqarish uchun ma'lumot olishning maqsadlari va vazifalariga xizmat qiladigan barcha hisobvaraqlar (auditiv, sintetik va qo'shimcha hisobvaraqlar)dan foydalangan holda ma'lumotlar umumlashtirilishini nazarda tutadi.

Tijorat banklari faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risida to'la va haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobni takomillashtirish talab etiladi. O'z navbatida moliyaviy hisobni tashkil etish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: hisob yuritishning ishchi modelini hisob yuritishning amaldagi hisobvaraqlar rejasi⁷ asosida tashkil etish; moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini aks ettirish uchun hisobvaraqlarni tanlab olish; moliyaviy hisob

⁷ Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисоб varaqlari режаси. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатга олинган (янги таҳрири).

ob'ektlarini baholash usullarini belgilab olish. Demak, moliyaviy hisob yuritishning asosiy maqsadi tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarni to'g'ri va aniq qilib tayyorlashdan iborat. Boshqaruv hisobi esa bankning moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimini tashkil etishdan iboratdir.

Ma'lumki, moliyaviy hisobot haqqoniylik ta'minlanishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. U asosan hisobot davri tugagach, belgilangan tartibda audit tekshiruvidan o'tganidan keyin foydalanuvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Hisobot ma'lumotlaridan bank faoliyati umumiy audit qilinayotgan paytda foydalanilish mumkin. Mazkur audit bank iqtisodiy faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Amalga oshiriladigan bunday auditlar natijalari bank xizmatidan foydalanuvchilarni undagi muammolar haqida ogohlantirish imkonini beradi. O'z navbatida tijorat banklari ham o'zining joriy va kelgusidagi moliyaviy holatini ob'ektiv hamda ishonchli baholash tizimiga va samarali boshqaruvga muhtojlik sezadi. Audit ma'lumotlari tijorat banklariga belgilangan manfaatlar va maqsadlarga muvofiq ravishda faoliyat ko'rsatish imkonini beradi.

Tijorat banklari uchun xalqaro andozalarga mos ravishda ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasida boshqa banklardan olingan kreditlarni hisobga oluvchi quyidagi hisobvaraqlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular hisobvaraqlar rejasining «Majburiyatlar» deb nomlanuvchi ikkinchi bo'limida joylashgan:

-21606- «Boshqa banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar». Bu hisobvaraqa passiv hisobvaraqlar bo'lib, ushbu hisobvaraqda olingan sanasidan boshlab 1 yil muddatgacha boshqa banklardan olingan kredit (Shuningdek, mohiyati bo'yicha kreditlar bo'lgan boshqa operatsiyalar)larning hisobi olib boriladi.

Hisobvaraqa kreditida olingan kreditlar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqaqning debetida to'langan kreditlar summasi hisobdan chiqariladi.

-22006 – «Boshqa banklardan olingan uzoq muddatli kreditlar». Bu hisobvaraqa passiv hisobvaraqlar bo'lib, ushbu hisobvaraqda olingan sanasidan boshlab 1 yildan ortiq muddatga boshqa banklardan olingan kredit (mohiyati

bo'yicha kreditlar bo'lgan boshqa operatsiya)larning hisobi olib boriladi. Hisobvaraqlarning kreditida olingan kreditlar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debitida to'langan kreditlar summasi aks ettiriladi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talablari darajasida yuritish maqsadida chet el banklaridan olingan kreditlar hisobini alohida balans hisobvarag'ida yuritish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy hisobotlarda ham o'z aksini topadi va audit uchun to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Auditiy hisob har bir kreditor bo'yicha kredit shartnomalariga qarab alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi. Barcha shaxsiy hisobvaraqlar raqamlari 20 xonali sonidan iborat bo'lib, ularning tuzilishi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Shaxsiy hisobvaralarning raqamlanishi

CCCCC	VVV K SSSSSSSS NNN
Bu erda,	
CCCCC	bosh kitob balans hisobvarag'i (hisobvaraqlar rejasiga muvofiq aniqlanadi)
VVV	valyuta kodi ("Jahon mamlakatlari va valyutalari tasniflagichi" asosida belgilanadi)
K	nazorat kaliti (kompyuter orqali dasturiy tarzda belgilanadi)
SSSSSSSS	mijozning BDMABdagi ro'yxat raqami (mijoz xosraqami)
NNN	Shu balans hisobvarag'i bo'yicha mijozning shaxsiy hisobvaraqlar tartib raqami

O'zbekiston Respublikasi banklarida axborotga kompyuterlarda ishlov berish, hisob yuritish va hisobot ishlarini soddalashtirish maqsadida shaxsiy hisobvaraqlarga raqamlar yagona qoidalar asosida belgilanadi. Asosiy shaxsiy hisobvaraqlarda uning tartib raqami 001 dan 999 gacha bo'lishi mumkin. Masalan, bank kodi 00486 bo'lsa, Islom taraqqiyot bankidan AQSh dollarida olingan kreditni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochiladi:

21606840K00000486001 – *IsTb dan olingan qisqa muddatli kreditlar*

Bankning kredit majburiyatlari (mohiyati bo'yicha kreditlar bo'lgan boshqa operatsiyalar) bo'yicha hisoblangan, lekin hali to'lanmagan foizlar hisobi 22410-

«Olingan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» hisobvarag'ida yuritiladi. Hisobvaraqlarning kreditida hisoblangan foizlar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida to'langan foizlar summasi, Shuningdek noto'g'ri hisoblangan foizlarning qaytarilgan summasi hisobdan chiqariladi. Auditiv hisob har bir kreditor bo'yicha kredit shartnomalariga qarab alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga keng miqyosda kirib borayotgan hozirgi sharoitda bank tizimiga, ushbu tizimda boshqaruv jarayonlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga bo'lgan talab yanada kuchaymoqda. Zero, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ham mamlakatimiz rahbarm moliya-bank tizimidagi islohotlarga alohida to'xtalib, sohada ko'plab nizom va me'yoriy xujjatlarni qayta ko'rib chiqish lozimligini aytib o'tgan⁸

O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida jalb etiladigan xorijiy kreditlar bo'yicha qarz oluvchilar (banklar)dan tushadigan taqdirlash puli respublika byudjetining daromadlari sifatida hisobga olinadi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Zaxira jamg'armasini shakllantirish manbalaridan biri hisoblanadi va Davlat byudjeti daromadlari tasnifining tegishli bo'limi va paragrafi bo'yicha ochilgan tranzit hisob raqamlari orqali o'tkaziladi.

Taqdirlash pulini o'tkazish uchun respublika byudjetining tranzit daromad hisob raqami rekvizitlari qarz oluvchilar (banklar)ga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan qarz oluvchi (banklar) o'rtasida tuziladigan kafolat bitimida O'zbekiston Respublikasi kafolatlari berilganligi uchun taqdirlash puli to'lash bo'yicha qarz oluvchi (banklar)ning majburiyatlari nazarda tutiladi. Taqdirlash puli miqdori jalb etiladigan xorijiy kredit shartlaridan kelib chiqib belgilanadi:

⁸ ЎзР Президентининг “Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларидаги омонатларини ҳимоялаш кафолатларини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-4057-сонли Фармони. 2008 йил 28 ноябрь

- tijorat shartlarida berilgan kreditlar bo'yicha, - yillik 0,5 foiz, asosiy qarzning tanlangan va qaytarilmagan qismiga o'tkaziladi;

- imtiyozli shartlarda berilgan kreditlar bo'yicha, - yillik 0,1 foiz asosiy qarzning tanlangan va qaytarilmagan qismiga o'tkaziladi⁹.

Taqdirlash puli jalb etiladigan kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq foizlar to'lanadigan tegishli sanalarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov kunidagi kursi bo'yicha teng miqdorda so'mda to'lanadi. Taqdirlash pulini to'lash uch kun mobaynida kechiktirilgan taqdirda, qarz oluvchilar (banklar) muddati o'tkazib yuborilgan summaga qo'shimcha ravishda har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan qarzlar summasining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydilar. Ilgari olingan kreditlar summasi o'zgarganligi, yoxud jalb etilgan kreditlarni qaytarish muddatlari uzaytirilganligi munosabati bilan kredit bitimlarini qayta rasmiylashtiruvchi qarz oluvchilar (banklar) taqdirlash pulini tegishli nizomda belgilangan tartibda kredit bitimlari qayta rasmiylashtirilgan paytdan boshlab to'laydilar.

Shunday qilib, banklar faoliyatida olinadigan daromadlarning buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida yukorida keltirilgan tartibda aks ettirilishi buxgalteriya hisobini xalkaro standartlar talabi darajasida tashkil kilishni ta'minlaydi va banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ma'lumotlar majmuining vujudga keltiradi.

1.3. Tijorat banklarining kapitallaShuvi jarayonida kredit operatsiyalarini audit qilishning uslubiy asoslari

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi, inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish jarayonida tijorat banklari ham erkin raqobatda faoliyat yuritadi. Raqobatda sinmaslik uchun faoliyat natijalarini hamda likvidligini audit qilib borish lozim bo'ladi. Iqtisodiy auditda ham ko'rsatkichlarda ifodalangan voqea –

⁹ Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi tўғrисидаги nizom. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 17.12.2004 йилда 1435-сон билан рўйхатга олинган.

hodisalar holati, o'zgarishi bo'laklarga bo'linib, tarkibiy hamda qanday omillar ta'sir qilganligi o'rganiladi.

Tijorat banklarida bo'layotgan barcha operatsiyalar tegishli xujjatlar bilan rasmiylashtiriladi, ular keyinchalik buxgalteriya schetlarida aks etiriladi va balans hamda hisobotlarda ko'rsatiladi. Albatta bular buxgalteriya hisobi fanining ob'ekti hisoblanadi. Lekin auditda buxgalteriya xujjatlari, balans va hisobotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalaniladi. Tijorat banklari faoliyatlarining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtiradilar. Auditda bu ko'rsatkichlarning haqiqiy miqdori reja yoki belgilangan normativlar bilan taqqoslanib o'rganiladi, o'zgarishlari aniqlanadi.

Albatta, audit qilingan har bir ko'rsatkich, ob'ektlar to'g'risida xulosalar chiqariladi. Bu ko'rsatkich haqiqiy bajarilishi nima sababdan rejadan ko'p yoki kam, qanday omillar ta'sir qilgan, bu ko'rsatkichlarni yaxshilash imkoniyatlari nimalardan iborat va hokazo. Demak, audit ma'lumotlari tijorat bank barcha bo'lim xodimlariga ayniqsa rahbarlarga juda zarur hisoblanadi.


Audit makon va zamonda muntazam olib borilishi lozim. Audit vaqt nuqtai nazaridan operativ, joriy va istiqbolli bo'ladi. Operativ auditda ma'lumotlar voqea, hodisalar sodir bo'layotgan vaqtda olinadi. Tijorat banki mutaxassislari operatsiyalarni amalga oshirish paytida darhol audit qilib ko'rishi lozim. Ayniqsa operativ audit pul mablag'lari harakatida, hisob – kitoblarni amalga oshirishda, qimmatli qog'ozlar bozori operatsiyalarida juda ham kerak. Joriy audit ma'lum muddatdan keyin o'tkaziladi. Tijorat banklari berilgan kreditlarning qaytarilishini, bank likvidligini, faoliyat natijalarini va Shu kabi ko'rsatkichlarni joriy audit qilib boradilar. Har bir bank kelasi yilga rejalar tuzadi. Bu reja ko'rsatkichlarni tuzish uchun ko'rsatkichlarning joriy holatini audit qilib, ularni kelasi yilda qanchalik o'stirish imkoniyatlari borligini aniqlashlari lozim.

Audit makon nuqtai nazaridan bankning hamma bo'limlarida olib borilishi lozim. Bank rahbariyati xodimlarning, bo'lim xodimlarining funktsional

vazifalarini belgilab, kimlar qachon, qanday ko'rsatkichlarni audit qilishlari va rahbariyatga nimalarni taqdim qilishlarini ko'rsatishlari lozim.

Bank faoliyatlari auditida ularning o'ziga xos xususiyatlari Shundaki, juda ko'p tijorat banklarining joylarda boshqarmalari, filiallari, bo'limlari va mini-banklari mavjud. Ayniqsa bank viloyat boshqarmalari, Respublika bank tashkilotlarida solishtirma (ayrim adabiyotlarda taqqoslama) auditga katta imkoniyat bor. Viloyat boshqarmalari tuman filiallari ko'rsatkichlarini taqqoslab, qaysi filial ko'rsatkichlari juda yuqori, qaysi filial ko'rsatkichlari juda past ekanligini aniqlab, ularning sabablarini, omillar tasirini o'rganib, ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash bo'yicha chora – tadbirlar belgilashi mumkin. Umuman auditni o'z vaqtida o'tkazib, to'g'ri xulosalar asosida bank faoliyati boshqarilsa, bunday banklar yaxshi natijalarga, yuqori ko'rsatkichlarga erishishi aniq.


Iqtisodiy adabiyotlarda tahlilning turlarini turli belgilari bo'yicha guruhlab beradilar. Albatta tahlilni turlarga ajratganda uning mazmuniga ahamiyat berish zarur. Tahlilni shunday belgi bo'yicha turlarga ajratganda biror mazmun ifoda etadimi yo'qmi. Lekin ko'pgina, adabiyotlarda tahlilni mazmuni bo'yicha, tahlil qilinayotgan davri bo'yicha, qaerda o'tkazilishi (makon) bo'yicha, tarmoqlar bo'yicha, hisob tizimi va boshqaruv ob'ektiga qarab turlarga bo'lishadi¹⁰ (1-chizma qarang).



1-chizma. Auditning mazmuni bo'yicha turkumlanishi


¹⁰ Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К», 2008. – 288 с.

Audit qilinayotgan davri bo'yicha operativ (tezkor), joriy va istiqbolli tahlil turlariga bo'linadi (2-chizmaga qarang).




2-chizma.Davrlar bo'yicha audit

Iqtisodiy tahlil o'tkazilish manzili (makon) nuqtai nazaridan ichki va tashqi tahlilga bo'linadi (3-chizmaga qarang).



3-chizma.O'tkazilish manzili bo'yicha audit

Audit o'tkazishda tahlil tizimidan foydalaniladi. Tahlil hisob tizimi va boshqaruv ob'ektiga ko'ra, boshqaruv va moliyaviy tahlillarga bo'linadi (4-chizmaga qarang).



4-chizma. Iqtisodiy tahlilning turlari

Iqtisodiy tahlil turlaridan tashqari, shakllari ham mavjudligini «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligida yoritgan¹¹. Unda iqtisodiy auditning kompleks, omilli va funktsional – qiymat tahlil (f.q.t) shakllarining mazmunini tushintirgan. Kompleks tahlilda xo'jalik faoliyati barcha sohalari faoliyat ko'rsatkichlari audit qilinib, faoliyatga umumiy baho berish uchun kompleks ko'rsatkich aniqlanadi va umumiy baho beriladi.

Omilli tahlilda ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillar chuqur o'rganiladi va ularning ta'sir natijalari aniqlanadi. Ko'rsatkichga salbiy ta'sir qilgan omillar ta'sirini kamaytirish choralari ko'rib, ko'rsatkichni yaxshilash choralari belgilanadi. Adabiyotlarda tahlilning shakllari sifatida solishtirma tahlil ham ko'rsatib o'tilgan. Bunday tahlilda o'xshash xo'jalik faoliyatlari ko'rsatkichlari solishtirilib ko'rilsa natijada qaysida ko'rsatkich yaxshi ekanligi va uning sabablari aniqlanishi mumkin.

F.Q.T. asosan faoliyat boshlanmasdan, hali asosan bo'lajak rejani tuzish uchun qo'llanadi. Bu tahlilda voqea – xodisalarning aniq raqamlarda ifodalangan miqdorlari emas, balki mantiqiy evristik usullardanm foydalanadi.

¹¹ М.Қ. Пардаев «Иқтисодий таҳлил назарияси». Самарқанд, «Зарафшон», 2001. 181бет

Tahlilda o'rganilayotgan ko'rsatkichning mazmun – mohiyatiga qarab turli usullarni qo'llab, taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar va bu farqlarni keltirib chiqargan omillar aniqlanadi. Statistika qo'llanadigan guruhlash, iqtisodiy indekslar usullari, qayta hisoblash, zanjirli almashtirish usullari, balans usullari Shular jumlasiga kiradi. Bu usullar mohiyati maxsus iqtisodiy auditga bag'ishlangan adabiyotlarda to'liq bayon qilingan. Xususan, professor M.Q. Pardaevning «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligida juda keng misollar bilan bayon qilingan.

Hozirgi zamon komp'yuterlaridan foydalangan holda matematik dastur tuzib, korrelyatsiya, regressiya, matritsalar usullarida juda tez muddatda ko'p omilli ko'rsatkichlarni audit qilish imkoniyati mavjud. Bunday imkoniyatdan foydalanib, ko'rsatkichning bo'lg'usi miqdorini aniqlash mumkin. Bu matematik modellarni ko'rsatkichlar bo'yicha biznes – reja tuzishda foydalansa bo'ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni banklarning faoliyat ko'rsatkichlarini muntazam audit qilishni taqozo etadi. Shuning uchun ham auditning ahamiyati ortib bormoqda. Tijorat banklarida banklararo kredit operatsiyalari faoliyati auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:

- banklararo kredit berish va qaytarilishini muntazam o'rganish;
- bank aktivlarining joylanishi va samaradorligini audit qilish;
- mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni o'rganish;
- bank biznes – reja va kelgusi strategiyasini ishlab chiqish uchun tegishli audit axborotlari bilan ta'minlash;
- bank likvidligi, to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun, ularni audit qilib borish;
- bank daromadlarini ko'paytirish, rentabelligini ko'tarish chora-tadbirlarini ishlab chiqarish.

Shunday qilib, tijorat banklarida banklararo kredit operatsiyalarini audit qilishda, avvalombor, kredit resursga ehtiyoji bo'lgan bankning moliyaviy

baraqarorlik ko'rsatkichlarini audit etish va uning holatiga boho berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2-Bob. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar hisobining hozirgi holati va uni takomillashtirish

2.1. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlarni rasmiylashtirish tartibi

TIF Milliy bank Toshkent shahar filialidan kredit olish uchun ariza qabul qilgach kredit paketini shakllantirish va uni audit qilishga kirishadi. Bu jarayon quyidagi bosqichda amalga oshiriladi:

- kredit olish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va kelgusidagi qarz oluvchi bilan muloqotda bo'lish;
- kredit narxini aniqlash;
- kredit shartnomasini tayyorlash.

Kredit olish uchun qarz oluvchi o'zining moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagi mazmunda audit qilishi lozim:

- o'z mahsulotini sotish bozori, unga talab va taklifni o'rganish;
- kredit olish uchun asos bo'luvchi tovar-moddiy boyliklarni etkazib berish, ishlab chiqarish harajatlari va tovarlarni sotish bo'yicha shartnomalar bilan ta'minlanganligi;
- kreditlanadigan tadbirning samaradorligi;
- qarz oluvchi hisob varag'iga pul mablag'larining kelib tushish davriyligi;
- kreditni va unga tegishli foizlarni to'lash manbalari;
- kredit uchun to'lanishi mumkin bo'lgan foiz hisob-kitobi va uning davriyligi;
- oldingi davr (yil, chorak, oy)dagi moliyaviy xo'jalik faoliyatining respektiv auditori;
- joriy davr uchun biznes-reja.

Boshqa bank banklararo kredit olish uchun auditoriy va xomcho't ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, kredit olish uchun iltimosnomasini tuzadi.

TIF Milliy bank Toshkent shahar filialida kredit olish uchun arizada kredit olish zaruriyati, uning samaradorligi, qaytarilishi, to'lovligi va ta'minlanishi, Shuningdek, o'z kapitali tarkibi va uning kreditlanayotgan tadbirdagi ishtiroki batafsil bayon qilinadi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Pul oqimi auditi ko'rsatilgan biznes-reja;
2. Oxirgi hisobot davri uchun buxgalterlik balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari va to'lov muddati 60 kundan oshgan qarzlarni qiyoslash dalolatnomalari talqini bilan birga;
3. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot;
4. Boshqa kreditlar, qarz mablag'lari mavjudligi va boshqa banklarda saqlanadigan bo'sh mablag'larning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
5. Kapitali bilak ishtirok etganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma¹².

Kredit xodimi yoki kredit paketini o'rganuvchi shaxs yuqorida qayd etilgan hujjatlarni olgach, uch kunlik muddatda quyidagilarni aniqlaydi: bankning kreditga va to'lovga qobiliyati, uning reyting bahosini, Shuningdek, kredit maqsadlarining ustav faoliyatiga muvofiqligi, kreditning turini aniqlaydi, bunda u majburiy tartibda likvidlilik, qoplash, muxtoriyat, qarz mablag'larini jalb qilish, foyda va aylanma mablag'lari aylanishi koeffitsientlarini o'rganib chiqishi lozim.

TIF Milliy bank Toshkent shahar filialida kredit paketini audit qilishda nafaqat kredit bitimlarinining turli sohalariga, balki rahbarning shaxsiy sifatlariga ham baho beriladi. Taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqqach, bank xodimi kredit bitimini tuzish uchun xulosani rasmiylashtiradi. Bunda quyidagilar ko'rsatiladi:

- kreditning maqsadi, muddati va miqdori;
- kredit qaytarilishining ta'minlanishi;

¹² Мерцалова А.И. Учет операционная деятельность в кредитных организациях: кассовые, расчетные, депозитные и кредитные операции: учебное пособ.- М.:КНОРУС, 2009.- 356 с.

- foiz miqdori va boshqalar.

Bank xodimining xulosasi rahbar tomonidan imzolangan va hujjatlar ilova qilingan holda kredit qo'mitasiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Qo'mita o'z vakolatlaridan kelib chiqqan holda uch kun mobaynida tegishli qaror qabul qiladi. Mazkur xulosa kredit qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadi. Shundan so'ng kredit shartnomasi tuziladi yoki kredit bitimini tuzish va kredit berishdan bosh tortish sabablari ko'rsatilgan holda qarz oluvchiga yozma ravishda rad javobi beriladi.

Kredit qo'mitasining ijobiy xulosasi keltirilgan holda banklararo kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasiga bank rahbari va qarz oluvchi imzo qo'yganidan so'ng u yuridik kuchga ega bo'ladi. Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi:

- kreditning maqsadi va summasi;
- uni berish tartibi hamda to'lash tartibi va shakli;
- majburiyatlarni ta'minlash shakllari, foiz stavkalari, ularni hisoblash tartibi va to'lash shakli;
- kredit berish va uni to'lash vaqtida tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- kredit berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, hisob-kitob va hujjatlarning ro'yxati hamda ularning davriyligi;
- bank tomonidan joyida hisob yuritish, kreditning qaytarilishini ta'minlash yuzasidan tekshiruvlar o'tkazish imkoniyati va boshqa masalalar.

TIF Milliy bank Toshkent shahar filialining kredit xodimi kredit shartnomasi tuzilganidan so'ng kreditni to'lash muddati va foiz stavkalarini ko'rsatgan holda kredit hisob varag'ini ochish to'g'risida qaror qabul qilgach, qarz oluvchiga kredit varaqchasi ochilib, unga asosan kredit yuzasidan nazorat amalga oshiriladi.

Kreditni berish va hujjatlashtirish tartibi hozirgi paytda markazlashtirilmagan va u tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Lekin amaliyotda ko'rsatilishicha, kreditlashning umumiy ishlab chiqilgan tartibi hamon mavjud bo'lib, unga tijorat banklari amal qiladilar. Kredit shartnoma tarkibi qonunda belgilanmagan. Kredit shartnomasini tuzishda bir qancha talablarni bajarish kerak: kredit maqsadli bo'lishi shart; kreditning summalari aniq belgilangan bo'lishi shart; kreditni qoplash tartibi aniq ko'rsatilgai bo'lishi lozim; kredit muddati ko'rsatilishi shart; kreditning ta'minlanganligi asoslangan bo'lishi lozim; kredit foizlari ko'rsatilishi lozim va boshqalar.


Shunday qilib, TIF Milliy bank Toshkent shahar filiali kredit shartnomasi tarkibi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: shartnoma maqsadi; bank huquqlari; qarz oluvchining huquqlari; bank majburiyatlari; qarz oluvchining majburiyatlari; shartnomanint amal qilish muddati; boshqa shartlar; tomonlarning yuridik manzili va imzolari.

Xorijiy banklar o'zlarining kredit shartnomalarini qo'llashning boy tajribasiga egadirlar. Uni o'rganish O'zbekiston Respublikasi uchun katta amaliy ahamiyatga egadir. Turli mamlakatlarda tuziladigan kredit shartnomalarining asosiy xususiyatlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: huquqiy madaniyatning yuqori darajasi; kredit bitimi shartlarining batafsil xarakteri; kredit shartnomalari shakllarining tiplashganligi;

Germaniyada bir tizimdagi banklar uchun umumiy kredit shartlari o'rnatiladi (5-chizmaga qarang).

Qonunlar bilan birgalikda ular kredit operatsiyalarining asosini tashkil etadi. Umumiy kredit shartlari mijozlarga etkaziladi, kredit shartnomasida ular takrorlanmaydi, faqat qarz oluvchi unga rozi bo'lgan punkt yoziladi. Germaniyada kredit shartnomalari erkinlashgan xarakterga ega¹³.

¹³ Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К », 2008. – 288 с.



5-chizma. Germaniyada kredit shartnomasini tuzish sxemasi

Kredit shartnomasining tipik shaklida quyidagi ko'rsatkichlar, bo'ladi: tomonlarning to'liq nomlari va manzillari; olingan va olinayotgan kreditlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar; yangi kreditning maqsadi; yangi kreditning shartlari; kredit uchun hisoblangan va undiriladigan foizlar summasini hisoblash tartibi; kredit qaytarilishining kafolati; boshqa shartlar; ma'sul shaxslarning muhrlar bilan tasdiqlangan imzolari.

Germaniyada bank va korxona o'rtasida kredit shartnomasi 3 bosqichda tuziladi: mijoz tomonidan kredit shartnomasi tarkibining shakllantirilishi; uning bank tomonidan ko'rib chiqilishi va xulosa berilishi; kredit shartnomasini imzolash.

Banklarda kredit arizasini ko'rib chiqishning majburiyligi kredit shartnomasini tuzishning huquqiy asoslanganligi garovidir.

Shunday qilib, TIF Milliy bank Toshkent shahar filiali banklararo kredit shartnomasini tuzishda barcha shartnomalar uchun zarur bo'lgan quyidagi asosiy talablar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin:

1) barcha huquq va manfaatlarni to'liq himoya qilish imkonini beruvchi, barcha holat va vaziyatlar uchun to'g'ri keluvchi universal shartnomalar shakli mavjud emas. Barcha holat va vaziyatlarni o'z ichiga qamrab oladigan shartnoma shaklini ishlab chiqish imkoni yo'q;

2) shartnoma (bizning holatda kredit shartnomasi) - individual xarakterga ega bo'lgan rasmiy yuridik hujjatdir;

3) aniq kredit shartnomasini tuzishda, kredit olish uchun murojat qilgan mijozlarga alohida (individual tarzda) yondashib, ularning huquqiy maqomi, tashkiliy-huquqiy shakli va kreditlanayotgan loyihaning xususiyatiga e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shartnoma tuzish jarayoniga yuridik va iqtisodiy jihatdan puxta, aniq, talab darajasida ijodiy yondashishi kerak.

2.2. TIF Milliy bank Toshkent shahar filialida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish amaliyoti

Respublika moliya-bank muassasalari hamda xalqaro moliya-bank muassasalari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asosiy me'zonlari ishlab chiqilgan bo'lib, moliyalashtirish jarayonida mana Shu shart va me'zonlarga qat'iy rioya qilinadi. TIF Milliy banki Toshkent shahar filiali nafaqat respublikamizda, balki, jahonning eng rivojlangan banklari sarasiga kirishi, Shuningdek, chet el banklari yo'naltirayotgan to'g'ridan-to'g'ri va davlat kafolati ostidagi investitsiya va kreditlarning katta qismi aynan ushbu moliya muassasa orqali amalga oshirilayotganligi, xalqaro moliya institutlari bilan dastlabki aloqalar ham dastlab

TIF Milliy banki Toshkent shahar filialida boshlanganligini inobatga olib, Milliy bankdagi ETTB kredit liniyasi shartlarini izohlashdan boshlaymiz.¹⁴

Kredit resurslari iqtisodiyotning barcha ustivor soha va tarmoqlariga mansub investitsiya loyihalarini, Shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ya'ni, eng yangi va yuqori texnologik mashina va uskunalarni hamda texnologiyalarni sotib olish, xorijiy valyutadagi ishchi sarmoyani shakllantirish, xarajatlarni qisman qoplash maqsadlari uchun yo'naltiriladi. Mablag'lar moliyaviy operatsiyalar, tamaki va spirtli ichimliklar, narkotik mahsulotlar, qurol-yarog' (o'q-dori) ishlab chiqarish va sotish, ekologiya uchun zararli ishlab chiqarishlar, qimor o'yinlari, Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ta'qiqlangan boshqa barcha faoliyat turlariga yo'naltirilmaydi. O'z navbatida, kredit mablag'laridan O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va boshqalar foydalanishlari mumkin.

Kreditlar ko'pi bilan etti yil, ikki yildan oshiq bo'lmagan imtiyozli davr bilan Davlat strategik ahamiyatiga molik bo'lgan (davlat investitsiya dasturi orqali), import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi turli mulk shakllariga asoslangan korxonalarni ushbu kredit yo'nalishlari bo'yicha kreditlanishi mumkin.

Kreditning maksimal summasi 5 million AQSH dollari miqdorida, biroq, loyiha boshlang'ich qiymatining 75 foizidan oshiq bo'lmagan miqdorda va qarz oluvchining o'z mablag'lari loyiha boshlang'ich qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorda bo'lganda kredit taqdim etiladi. Buni qarz oluvchining o'z mablag'lari, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan binolar, inshootlar, ishlab chiqarish oldi aylanma mablag'lari hamda boshqa moliyaviy xarajatlarni qoplash uchun ketadigan mablag'lar ko'rinishida ta'minlash mumkin.

Tijorat banki tomonidan banklararo kreditlar hisobi quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

¹⁴ЎЗР ТИФ Миллий банки Тошкент шаҳар филиали 2011 йил якунлари бўйича йиллик ҳисоботи маълумотлари шартли равишда олинди

Tegishli valyutadagi bosh kitobda:

D-t 10501 – Boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari – Nostro

K-t 21606 - Boshqa banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar

CHet el bankidan olingan kreditlar bo'yicha foizlar hisoblanganda:

D-t 53106 – Boshqa banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar

K-t 22410 - Olingan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar

Olingan kreditlar qaytarib berilagnda:

D-t 21606 - Boshqa banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar

K-t 10501 – Boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari – Nostro

Garov ta'minoti - kredit summasining 120 foizidan kam bo'lmagan miqdorda(xukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug'urta polislari, asosiy vositalar, bino va inshootlar(baholangan qiymatining 70 foizigacha miqdorida), asbob-uskunalar(baholangan qiymatining 60-70 foizi miqdorida)) bo'lishi lozim.

Kredit uchun foizlar LIBOR ning foiz stavkasiga asoslangan foiz + ETTB marjasi + TIF Milliy banki marjasi asosida holda hisoblanadi. Bir martalik komissiya uchun to'lanadigan to'lovlar barqaror valyutadagi kredit summasining 1,5 foizi miqdorida, majburiyat uchun komissiya to'lovlari yiliga 0,7 foiz, u kredit shartnomasi imzolangandan boshlab, kredit mablag'lari qarz oluvchi tomonidan to'liq ishlatib bo'lgunigacha ajratilib turiladi. Shuningdek, kredit bo'yicha barcha turdagi to'lovlarning davriyligi - har olti oyda (masalan, 8 fevral va 8 avgust) amalga oshiriladi.

LIBOR-LONDON interbankrate- loyiha birlamchi qiymatining banklararo foiz stavkasi. Kreditlar uchun foizlarni hisoblaganda quyidagi moliyaviy harajatlar ko'zda tutilishi lozim;

- bir martalik komissiya - kredit shartnomasi imzolangan kundan boshlab, o'n kun ichida to'lanadi;

- bank komissiyasi - pul o'tkazish, akkreditiv ochish va boshqalar uchun;

- ro'yhatga olishga ketadigan xarajatlar - «Garov to'g'risida»gi qonunga muvofiq loyiha bo'yicha moliyalashdan oldin, ko'chmas mulkka bo'lgan garov shartnomasi summasining 0,5 foizi miqdorida;

- sug'urta badallarini to'lash bo'yicha harajatlar(garovga qo'yiladigan mulkni va boshqalarni sug'urta qilish) - loyiha bo'yicha moliyalashtirish boshlangunga qadar¹⁵.

Bank tomonidan berilgan kredit amaldagi qiymatida aks ettiriladi va u qarzdorga berilgan pul mablag'lari summasini ifodalaydi. Bank tomonidan kredit berilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Dt 11900-15500 (tegishli mijozning kredit hisobvarag'i), Kt 16103 - Bosh bank/ filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar (agar mablag' oluvchiga boshqa tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatilsa) yoki Kt – mablag' oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i (agar mablag' oluvchiga mazkur bankda xizmat ko'rsatilsa) yoki Kt – 10100 – “Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari” (kredit naqd pulda berilganda).

Kredit berish munosabati bilan bank tomonidan olinadigan vositachilik haqi qarzdorning moliyaviy ahvolini va investitsiya loyihalarini qoplanishini baholash, kafolatlarni baholash va aks ettirish, garov va boshqa ta'minotlarni tashkillashtirish bo'yicha tadbirlar, hujjatlarni tayyorlash va ular bilan ishlash hamda bitimni yakunlash bilan bog'liq bank xarajatlari kompensatsiyasini o'z ichiga oladi. Shu kabi vositachilik haqlari kredit berish va kelgusida kredit munosabatlarida qatnashishning ajralmas qismi bo'lib, va ularga tegishli to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar bilan birgalikda, muddati uzaytiriladi va real daromadni tuzatish (korrektirovka qilish) sifatida tan olinadi. Bundan tashqari, banklar kredit berish borasida yozma majburiyat uchun vositachilik haqi olishlari mumkin.

Banklar tomonidan mazkur Nizomning 4-bandida ko'rsatilgan xizmatlari uchun potentsial qarz oluvchilardan vositachilik haqi olinayotganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Dt - 20200-Qarz oluvchining talab qilib

¹⁵ Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в коммерческом банке. Учебное пособие -Москва.: 2008, стр. 2009

olunguncha depozit hisobvarag'i, Kt-22896 "Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar" hisobvarag'i.

Kredit berish to'g'risidagi yozma majburiyat bergani uchun olingan vositachilik daromadlari, kredit shartnomasini tuzishi ehtimoli mavjud bo'lgan taqdirda, bankning kredit berish jarayonida doimiy ishtirok etganligi uchun to'lov (kompensatsiya) sifatida qaraladi. Bank tomonidan olingan vositachilik daromadlarining muddati, ular bilan bog'liq bevosita xarajatlar bilan birgalikda uzaytiriladi va ular real daromadga tuzatishlar (korrektirovka) sifatida tan olinadi. Agar kredit berish bo'yicha majburiyat muddati tugab, kredit talab qilib olinmagan bo'lsa, u holda kredit berish majburiyati uchun vositachilik haqi Shu muddat tugagandan keyin daromad sifatida tan olinadi.

Bozorda kredit shartnomasida belgilanganidan ko'ra yuqoriroq foiz stavkasi shakllanganligi munosabati bilan bank va qarzdor o'rtasida qarzdor tomonidan bankka foiz stavkasining oshganiga alternativa sifatida muayyan komissiya (to'lov) to'lanishi to'g'risida keliShuvga erishilgan taqdirda, ushbu to'lov kredit muddati davomida to'lanishi lozim bo'ladi, ya'ni muddati kechiktiriladi va real daromadni tuzatilishi (korrektirovkasi) sifatida tan olinadi.

Qarzdor tomonidan kredit muddatidan oldin qaytarilsa yoki kreditdan qaytarish muddatidan oldin boshqa shaxs foydasiga voz kechilsa, bank Shu bilan bog'liq har qanday kechiktirilgan vositachilik haqini kredit qaytarilgan yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan sanasiga daromad sifatida tan oladi.

Balans hisobotini har bir tuzish sanasiga (har oyda) bank tomonidan kreditlarning qadrsizlanishiga doir biron-bir ob'ektiv dalillar mavjudligi "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilish va ularni ishlatish tartibi to'g'risida"gi Nizomga¹⁶ va "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida"gi Nizomga¹⁷ hamda Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq baholanadi.

¹⁶ "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular b'yiicha ehtimoliy i'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qiliish va ularni ishlatiish tartibi t'g'risida"gi Nizom (r'i'yxat raqami №632, 11 fevral' 1999 i'il)

¹⁷ "Foizlarni o'stirmaslik t'g'risida"gi Nizomga (r'i'yxat raqami 1304, 24 yanvar' 2004 i'il)

Kredit qadrsizlanishini tasdiqlovchi ob'ektiv dalillar va sharoitlar aniqlangan taqdirda, zarar summasi quyidagi ikki miqdordan eng yuqorisi bo'yicha baholanadi:

1) "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilish va ularni ishlatish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq aniqlangan summa bo'yicha yoki

2) Kreditning balans qiymati va kreditning boshlang'ich foiz stavkasi bo'yicha diskontlangan kutilayotgan bo'lajak pul oqimlarining joriy qiymati o'rtasidagi farq bo'yicha.

Bank ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashni quyidagicha aks ettiradi:

Dt 56802- "Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash", Kt – Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – Kreditning mos kategoriyasi (kontr – aktiv)

Agar kredit portfelining keyingi auditi natijasida uning zaxiralari belgilangan talablardan oshsa, bank zaxira summasini oxirgi sana holati bo'yicha aniqlangan, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar summasiga muvofiqlashtirishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Dt – Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – Kreditning mos kategoriyasi (kontr – aktiv), Kt 56802- "Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash"

Chet el valyutasida berilgan kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash avval kredit qaysi valyutada berilgan bo'lsa, o'sha valyutada amalga oshiriladi. Shu tarzda, birinchi navbatda, kutilayotgan har qanday zararlarni baholash chet el valyutasida amalga oshiriladi, keyin bu summa O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida aks ettiriladi.

Kreditlarni qaytarilishi qarz oluvchining asosiy, Shuningdek ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi: Dt- 20200-Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i, Kt – Mijozning kredit hisobvarag'i.

Agar kredit kafolat beruvchi (kafil) tomonidan qaytarilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Dt – Kafolat beruvchi (kafil) talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i, yoki Dt 16103 - Bosh bank/ filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar (agar _oluvchiga boshqa tijorat banki xizmat ko'rsatsa), Kt – Mijozning kredit hisobvarag'i.

Kreditlar qarz oluvchi tomonidan naqd pulda qaytarilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Dt 10100 – “Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari”, Kt – Mijozning kredit hisobvarag'i.

Agar kreditga foiz o'stirmaslik maqomi berilmagan bo'lsa, unda kreditlar bo'yicha foizlar tuShumi quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi: Dt- 20200-Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i, Kt 16309 – “Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar” hisobvarag'i.

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlanmagan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda ushbu kreditlar zararlar uchun tashkil qilingan zaxira hisobiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobdan chiqariladi: Dt - Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – Kreditning mos kategoriyasi (kontr-aktiv), Kt – Mijozning kredit hisobvarag'i.

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlangan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda bank olingan kreditni garovga qo'yilgan mol-mulk orqali undirish huquqiga ega. Undirib olish bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulk kim oshdi savdosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotiladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan mablag'lar kelib tushganda: Dt 10301- Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro - debetlanadi va Kt 29801 “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag'i kreditlanadi.

Kreditlar bo'yicha asosiy qarzni va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan, lekin hali olinmagan foizlarni qaytarish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

a) Asosiy qarz qaytarilganda: Dt 29801 “Mijozlar bilan hisob-kitoblar”, Kt – Mijozning kredit hisobvarag'i.

b) Asosiy qarz to'liq qaytarilgandan keyin, foizlar qaytarilayotganda: Dt 29801 "Mijozlar bilan hisob-kitoblar", Kt 41400-44600 - Kreditlar bo'yicha foiz daromadlari hisobvarag'i.

Olingan kredit garovga olingan mol-mulkni o'z egaligiga olish yo'li bilan qaytarilgan taqdirda, kreditning balans qiymatidan va garovga qo'yilgan mol-mulkning haqqoniy qiymatidan qaysi biri eng kam bo'lsa, o'sha qiymat bo'yicha, uni sotish bo'yicha qilingan xarajatlarni chegirgan holda, lekin qayta savdodagi dastlabki sotuv bahosidan 10% kam bo'lmagan summada quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi: Dt 16701 – "Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undirilgan mulk", Kt – Mijozning kredit hisobvarag'i.

Qarzdor etarli darajada pul mablag'lariga ega bo'lmagan taqdirda, bank kredit bo'yicha qarzni qarzdorning likvid mol-mulki hisobidan uning roziligi bilan, agar qarzdor norozi bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud qarori asosida undiruvni qarzdorning likvid mol-mulkiga qaratish yo'li bilan qaytarib oladi.

Kreditlar bo'yicha asosiy qarz va hisoblangan, lekin hali olinmagan foizlar qarzdorning likvid mol-mulkini sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga qaytarilganda, mazkur Nizomning 18-bandida belgilangan buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi.

Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasidan foydalanish amaldagi Nizomga¹⁸ muvofiq amalga oshiriladi.

Masalan: Osiyo Taraqqiyot banki (OTB) Kreditning maksimal summasi 5 mln. AQSH dollari, biroq loyiha boshlang'ich qiymatining 75 foizidan oshiq bo'lmagan miqdoridagi eksportga yo'naltirilgan, import o'rnini bosuvchi, yuqori sifatli, jahon andozalariga javob bera oladigan, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish ko'zda tutiladi¹⁹.

¹⁸ "Тижорат банклари томонидан активлар сифатини таснифлаш, улар бўйича эҳтимолий йўқотишларга қарши заҳиралар ташкил қилиш ва уларни ишлатиш тартиби тўғрисида"ги Низом (рўйхат рақами №632, 11 февраль 1999 йил)

¹⁹ Мерцалова А.И. Учет операционная деятельность в кредитных организациях: кассовые, расчетные, депозитные и кредитные операции: учебное пособи.- М.:КНОРУС, 2009.- 356 с.

Osiyo Taraqqiyot banki tomonidan kreditlash davri maksimal 8 yil bo'lib, bunda imtiyozli davr 3 yilgacha etishi mumkin. Shuningdek loyiha bo'yicha joylashtiriladigan asbob-uskunalarini etkazib beruvchi-OTBga a'zo mamlakatlari bo'lishligi moliyalashtirishning asosiy shartlari sifatida ko'riladi.

Kreditlashning yana bir asosiy mezonlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'z mablag'lari (o'z sarmoyasi) loyiha boshlang'ich qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorda bo'lishligi kerak. Buni qarz oluvchi o'z mablag'lari, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan binolar, inshootlar, mashina va asbob-uskunalar, ishlab chiqarishdan oldingi davrning aylanma sarmoyasi va moliyaviy xarajatlarni qoplashga ketadigan boshqa mablag'lar ko'rinishida ta'minlashi mumkin.

Kafolat ta'minoti - kredit summasining 120 foizidan kam bo'lmagan miqdorda (hukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug'urta polislari, asosiy vositalar, binolar, inshootlar (baholangan qiymatining 70 foizigacha miqdorida), asbob-uskunalar (baholangan qiymatining 60-70 foizi miqdorida)).

Kredit uchun foiz to'lovlari foiz stavkasiga asoslangan foiz + O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki Toshkent shaxar filiali marjasi asosida, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki Toshkent shaxar filiali marjasi to'lovlari sub loyihalarning baholanishi (kreditlash davri, tavakkalchilik darajasi) ga qarab 2 foizdan 5 foizgacha bo'lishi mumkin. Shuningdek, bir martalik komissiya to'lovlari kredit summasining 1,5 foizi miqdorida belgilanadi.

Majburiyat uchun komissiya to'lovlari yiliga 0,75 foiz, u kredit shartnomasi imzolangan vaqtdan boshlab, kredit mablag'lari qarz oluvchi tomonidan to'liq ishlatilib bo'lunguncha ajratilib turiladi. O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki Toshkent shaxar filiali bilan Osiyo Taraqqiyot banki o'rtasidagi banklararo kredit yo'nalishlari bo'yicha to'lovlarning davriyligi har olti oyda to'lanadi.

Masalan: Xalqaro Moliya Korporatsiyasi. Ushbu kredit yo'nalishi bo'yicha xorijdan texnologiyalar va asbob-uskunalar sotib olishni, ishchi kapital bo'yicha joriy xarajatlarni qoplashni va xizmat ko'rsatish sohasi va boshqalar

moliyalashtiriladi. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi kredit yo'nalishi bo'yicha kreditlashda qarz oluvchi bo'lib iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari(qonunda belgilangan xususiy sektorning har qanday mulkchilik shakli) ishtirok etishi mumkin.

Kreditlashning asosiy mezonlaridan biri bu kreditlash davrining ko'pi bilan etti yil va Shuningdek, ikki yildan oshiq bo'lmagan imtiyozli davr bilan taqdim etiladi. Kreditning maksimal summasi 2 million AQSH dollari miqdorida, biroq, loyiha boshlang'ich qiymatining 75 foizidan oshiq bo'lmagan miqdorda taqdim etiladi. O'z navbatida kreditning minimal summasi loyihaga jalb qilinadigan kredit kamida 50 ming AQSH dollari miqdorida bo'lishligi talab etiladi.

Kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari Xalqaro Moliya Korporatsiyasi fondi kredit yo'nalishi bo'yicha kreditlanishda qarz oluvchining o'z mablag'lari loyiha boshlang'ich qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorda bo'lishligi zarur. Buni qarz oluvchining o'z mablag'lari, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan binolar, inshootlar, ishlab chiqarish oldi aylanma mablag'lari hamda boshqa moliyaviy xarajatlarni qoplash uchun ketadigan mablag'lar ko'rinishidagina ta'minlash mumkin. Shuningdek, garov ta'minoti kredit summasining 125 foizidan kam bo'lmagan miqdorda(xukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug'urta polislari, asosiy vositalar, bino va inshootlar(baholangan qiymatining 70 foizigacha miqdorida), asbob-uskunalar (baholangan qiymatining 60-70 foizi miqdorida)) bo'lishi lozim.

Ushbu kredit yo'nalishi bo'yicha kredit uchun foizlar LIBOR ning foiz stavkasiga asoslangan foiz +XMK marjasi + O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki Toshkent shaxar filiali marjasi (XMK kredit liniyasi bo'yicha har olti oyda qayta belgilanadi) asosida hisoblanadi²⁰.

Shuningdek, bir martalik komissiya to'lovlari barqaror valyutadagi kredit summasining 1 foizi miqdorida (kredit shartnomasi imzolangan kundan boshlab,

²⁰ Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с. 2 экз.

o'n kun ichida), majburiyat uchun komissiya to'lovlari yiliga 0,5 foiz miqdorida belgilanadi. Majburiyat uchun komissiya to'lovlari kredit shartnomasi imzolanganidan boshlab, kredit mablag'lari qarz oluvchi tomonidan to'liq ishlatib bo'lgunigacha ajratilib turiladi. O'z navbatida, bank komissiyasi to'lovlari pul o'tkazish, akkreditiv ochish va boshqalar uchun ham qabul qilinadi.

Kreditlashning asosiy shartlaridan biri bu to'lovlarning davriyligi har olti oyda amalga oshiriladi. Ro'yhatga olishga ketadigan xarajatlar - «Garov to'g'risida»gi qonunga muvofiq . Sug'urta badallarini to'lash bo'yicha harajatlar (garovga qo'yiladigan mulkni va boshqalarni sug'urta qilish) - loyiha bo'yicha moliyalashtirish boshlangunga qadar.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, chet el banklarining deyarli hammasida investitsiya loyihalarini kreditlash shartlari bir xil. Faqatgina ularning ba'zi-bir shartlarida ozgina farqlar mavjud. Bundan Shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday xalqaro moliyaviy tashkilot yoki xorijiy bank biror bir xududga o'z mablag'larini yo'naltirishdan oldin o'sha xududdagi makroiqtisodiy vaziyatni kompleks ravishda audit qiladi. Audit xulosalariga tayangan holda kreditlash shartlarini belgilaydi. Bunda asosiy e'tibor mamlakatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligiga, infratuzilmaning rivojlanganligiga qaratiladi. Xulosa qilib aytganda, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xorijiy banklarining kreditlarini birmuncha engil shartlar asosida jalb etish uchun mamlakat siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlash zarur bo'ladi.

2.3. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar hisobini takomillashtirish yo'llari

YUqoridagi paragraflardan ko'rinib turibdiki, TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar ham bitta balans hisobvarag'ida yuritilmoqda, ya'ni 21606- «Boshqa banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar» va 22006 – «Boshqa banklardan olingan uzoq muddatli kreditlar».

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari chet el banklaridan olingan banklararo kreditlar hisobini takomillashtirish, ularni audit qilish uchun aniq va to'liq malumotlar olish maqsadida amaldagi hisobvaraqlar rejasiga 21608-«Chet el banklaridan olingan qisqa muddatli kreditlar» va 22008 -«Chet el banklaridan olingan uzoq muddatli kreditlar» balans hisobvaraqlarini kiritish lozim.

Shuningdek, chet el banklaridan olingan banklararo kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarni ham aloxida 53107-«Chet el banklaridan olingan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar» va 54107-«Chet el banklaridan olingan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar» hisobvarag'ida aks ettirilishi lozim (2- jadvalga qarang).

2-jadval

**«O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi
hisobvaraqlar rejasiga qo'shimcha kiritilishi taklif etilayotgan
hisobvaraqlarning ta'rifi**

Hisob- varaqlar ning raqami	Hisobvaraqlarning tarifi
21608	-Chet el banklaridan olingan qisqa muddatli kreditlar Hisobvaraqlarning ta'rifi: olingan sanasidan boshlab 1 yil muddatgacha chet el banklaridan olingan kredit (Shuningdek, mohiyati bo'yicha kreditlar bo'lgan boshqa operatsiyalar)larning hisobi olib boriladi. Hisobvaraqlarning kreditida olingan kreditlar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida to'langan kreditlar summasi hisobdan chiqariladi. Tahliliy hisob har bir kreditor bo'yicha kredit shartnomalariga qarab alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.
22008	- Chet el banklaridan olingan uzoq muddatli kreditlar Hisobvaraqlarning ta'rifi: olingan sanasidan boshlab 1 yildan ortiq muddatga chet el banklaridan olingan kredit (mohiyati bo'yicha kreditlar bo'lgan boshqa operatsiya)larning hisobi olib boriladi Hisobvaraqlarning kreditida olingan kreditlar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida to'langan kreditlar summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob har bir kreditor bo'yicha kredit shartnomalariga qarab alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.
53107	Chet el banklaridan olingan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar Hisobvaraqlarning ta'rifi: chet el banklaridan olingan kreditlar (mohiyati bo'yicha kreditlar deb ataladigan boshqa operatsiyalar) bo'yicha bankning foizli

xarajatlari hisobi olib boriladi.

Hisobvaraqlarning debetida to'langan foizlar summasi, Shuningdek kreditlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizli xarajatlar summasi aks ettiriladi.

Hisobvaraqlarning kreditida noto'g'ri hisoblangan yoki to'langan foizlarning qaytarilish summasi, Shuningdek hisobot yilining oxirida bank moliyaviy natijasi sifatida 31206- «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» hisobvaraqla o'tkaziladigan summa aks ettiriladi

54107 **Chet el banklaridan olingan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar**

Hisobvaraqlarning ta'rifi: chet el banklaridan olingan kreditlar (mohiyati bo'yicha kreditlar deb ataladigan boshqa operatsiyalar) bo'yicha bankning foizli xarajatlari hisobi olib boriladi.

Hisobvaraqlarning debetida to'langan foizlar summasi, Shuningdek kreditlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizli xarajatlar summasi aks ettiriladi.

Hisobvaraqlarning kreditida noto'g'ri hisoblangan yoki to'langan foizlarning qaytarilish summasi, Shuningdek hisobot yilining oxirida bank moliyaviy natijasi sifatida 31206- «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» hisobvaraqla o'tkaziladigan summa aks ettiriladi

Bundan tashqari, amaldagi «Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq kredit majburiyatlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar va kredit bo'yicha vositachilik daromadlari 22896- «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar» hisobvaraqlariga olib boriladi.²¹

Agar kredit majburiyati muddati tugagan va kredit berilmagan bo'lsa, muddati uzaytirilgan daromadlar foizsiz daromadlar tarkibiga o'tkaziladi, ya'ni 45233- «Kreditlar bo'yicha vositachilik daromadlari» yoki 45237 – «Kredit majburiyatlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar» hisobvaraqlariga olib boriladi.

Agar bank tomonidan banklararo kredit berish bo'yicha majburiyati bajarilgan bo'lsa, muddati uzaytirilgan daromadlar foizli daromadlar tarkibiga o'tkaziladi, ya'ni 41400-44600 Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar hisobvaraqlariga olib boriladi.

Bizning fikrimizcha, kredit majburiyatlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar va kredit berish bo'yicha tayyorlov ishlari uchun (mijozning moliyaviy ahvoli va kreditga layoqatliligini baholash, garov va kafolatlar bo'yicha keliShuvlarni

²¹ «Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida Nizom» (Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2004 йил 27 ноябрдаги 25/9-сонли Қарори билан тасдиқланган №594).

baholash va hisobga olish va boshqa) vositachilik daromadlari foizli daromadlar tarkibiga o'tkazilishi maqsadga muvofiq emas. Bunday daromadlar bank tomonidan kredit majburiyati muddati davomida amortizatsiya qilinib, foizsiz daromadlar (komission daromadlar) sifatida hisobga olib borilishini taklif qilamiz. Bu o'z navbatida chet el banklaridan olingan kreditlar hamda ushbu kredit liniyalari hisobidan bank mijozlariga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning buxgalteriya hisobini 18-sonli MHXS (Tushum) talablari asosida tashkil qilinishini ta'minlaydi²².

Banklararo kredit berishni tayyorlash uchun vositachilik haqi, Shuningdek, kredit berish to'g'risida majburiyat uchun vositachilik haqi (kredit berish to'g'risida majburiyatning amal qilish davrida berilgan kreditlar bo'yicha), kredit bo'yicha daromadlarni tuzatish (kotirovka) sifatida tan olinadi. Quyidagi keltirilgan misolda, kredit berish majburiyati uchun vositachilik haqi ko'rib chiqilgan. Ushbu metodologiya kredit berishni tayyorlash uchun vositachilik hakiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Misol: O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki Toshkent shaxar filiali 2011 yilda 10 mln. so'm miqdorda qisqa muddatli banklararo kredit majburiyatini olgan²³. Ushbu bank qisqa muddatli banklararo kredit to'g'risida majburiyati uchun kreditning umumiy summasidan 4 foiz miqdorida (qaytarib berilmaydigan) vositachilik haqini oladi, va ushbu majburiyatning amal qilish muddati 3 oyni tashkil etadi. Kredit bo'yicha foiz stavkasi (yillik) 15%ni tashkil etadi, bunda foiz to'lovlari har oy amalga oshirilishi lozim. 10 mln. so'm miqdoridagi asosiy qarz summasi ikki yil tugagandan keyin qaytarilishi lozim. Bank uning kredit berish majburiyati amal qiladigan uch oy muddat davomida mijoz tomonidan kredit olish uchun murojaat qilinishini kutadi.

$$\text{Vositachilik haqi summasi} = 10.000.000 \times 4\% = 400\,000$$

$$\text{Oylik foizlar} = 10 \text{ mln.} \times 15\%/12 = 125\,000$$

²² Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособи. – М.: «Дашков и К », 2008. – 288 с.

²³ ТИФ Миллий банки Тошкент шаҳар филиалининг 2011 йилдаги бухгалтерия ҳисоби маълумотларидан шартли равишда олинди

Majburiyatlar uchun vositachilik haqini olish bo'yicha buxgateriya o'tkazmasi:

Dt – Qarz oluvchining talab qilib olgungacha
depozit hisobvarag'i 400.000

Kt 22896 - “Boshqa muddati uzaytirilgan
daromadlar” 400.000

Agar kredit majburiyatnomasi muddati kredit taqdim etilmasdan tugasa:

Dt 22896 – “Boshqa muddati uzaytirilgan
daromadlar” 400.000

Kt 45237 – “Kredit majburiyatlari bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar” 400.000

(a) Agar bank tomonidan olingan banklararo kredit bo'yicha majburiyati bajarilayotgan bo'lsa, u holda muddati uzaytirilgan daromadlar kreditning amal qilish muddati davomida daromadni tuzatish sifatida real foiz stavkasi usulini qo'llagan tarzda amortizatsiyalanadi (3-jadvalga qarang).

(b) Vositachilik haqi mohiyatiga ko'ra kredit bo'yicha daromatlarni muvofiqlashtiradi deb asoslanganda, kredit bo'yicha amaldagi ichki daromadlik stavkasi 15%ga teng bo'lgan ko'rsatilgan foiz stavkasining ko'rsatkichini emas, balki 17.3473%ni tashkil etadi.

3-jadvali

Muddati uzaytirilgan vositachilik haqining amortizatsiyasi

Davr	Pul ko'rinishidagi olingan foizlar	Foizli daromad	Muddati uzaytirilgan vositachilik daromadlarining amortizatsiyasi
1	125.000	144.561	19.561
2	125.000	139.061	14.061
3	125.000	139.265	14.265
4	125.000	139.471	14.471
5	125.000	139.680	14.680
6	125.000	139.892	14.892
7	125.000	140.107	15.107

8	125.000	140.326	15.326
9	125.000	140.547	15.547
10	125.000	140.772	15.772
11	125.000	141.000	16.000
12	125.000	141.231	16.231
13	125.000	141.466	16.466
14	125.000	141.704	16.704
15	125.000	141.946	16.946
16	125.000	142.191	17.191
17	125.000	142.439	17.439
18	125.000	142.691	17.691
19	125.000	142.947	17.947
20	125.000	143.206	18.206
21	125.000	143.470	18.470
22	125.000	143.737	18.737
23	125.000	144.007	19.007
24	125.000	144.282	19.282
Jami:		3.400.000	400.000

(c) Operatsiya mohiyatini yanada aniqroq aks ettirish uchun muddati uzaytirilgan vositachilik haqini amortizatsiyalash uchun kredit “vositachilik daromadlari”ga emas, balki “foizli daromadlar”ga taalluqli bo’lishi kerak. 1-nchi oy uchun vositachilik daromadi quyidagi tartibda tan olinadi:

Dt 22896 – “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar” 19.561

Dt - Qarz oluvchining talab qilib olgungacha depozit 125.000
hisobvarag’i

Kt 41400-44600 – Kreditlar bo’yicha foizli daromadlar 144.561

Shunday qilib, TIF Milliy banki Toshkent shaxar filiali chet el banklaridan olingan banklararo kreditlar hamda ushbu kredit liniyalari hisobidan bank mijozlariga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning buxgalteriya hisobini yuqorida keltirilgan tartibda aks ettirilishi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talabi darajasida tashkil qilishni ta’minlaydi va banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ma’lumotlar majmuining vujudga keltiradi.

3-Bob. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kredit operatsiyalarni audit qilish metodikasi va uni mukammallashtirish yo'llari

3.1. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlarni audit qilishda axborot ta'minot manbalari

TIF Milliy banki Toshkent shaxar filialida chet el banklaridan olingan banklararo kreditlarini audit qilish uchun kerakli ma'lumotlar bo'lishi lozim. Bu ma'lumotlar turli axborot manbalaridan olinadi. Qaerdan, qanday ma'lumotlar kerakligi auditning mavzusi, maqsadi va vazifasiga bog'liq. Umuman, chet el banklaridan olinadigan kreditlarni audit qilish uchun reja, normativ (belgilangan), strategik ma'lumotlardan tashqari buxgalteriya hisobi va hisoboti, statistik hisobot, auditorlik tekshiruvi, aktsiyadorlar yig'ilishi bayonlari va Shu kabilar zarur bo'ladi.

Auditning asosiy axborot manbalari quyidagilar:

1. Biznes - reja ma'lumotlari.
2. Buxgalteriya hisobi va hisoboti.
3. Statistik hisob va hisobot.
4. Operativ (tezkor) hisob va hisobot.
5. Hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Ushbu sanab o'tilgan ma'lumotlar ichida eng asosiysi buxgalteriya hisobi va hisobotidir, Chunki taxminan 70 foiz ma'lumotlarni iqtisodiy audit buxgalteriya hisobidan oladi. Audit qilish jarayonida yillik hisobotga yozilgan izohnoma ham har tomonlama ko'rib chiqiladi. Audit qilish jarayonida hisobdan tashqari ma'lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi.

Bularga: tekshirish va taftish dalolatnomalari, yuqori tashkilotlar, moliya va soliq idoralari, banklarning bajargan audit natijalari, laboratoriya va tabobat nazorati materiallari, korxona mehnat jamoasining umumiy majlis materiallari, matbuot materiallari, tuShuntirish va ma'ruza xatlari, ijro etuvchilar bilan shaxsiy suhbat o'tkazish materiallari kiradi.

Audit qilishning samarasi avvalambor hisobot ma'lumotlarining sifatiga

bog'liq. Shuning uchun hisob va hisobot materiallarini tekshirish kerak. Amalda ma'lumotlarni tekshirishning bir necha usullari mavjud.

1. Hisobotlarni tuzish qoidalariga amal qilish. Ushbu tekshirish o'z ichiga quyidagilarni oladi: hisobot shakllarining to'g'ri to'ldirilishi va ularning O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O'zmakroiqqisodiyot va Statistika Vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllarga mos kelishi, ayrim mikdoriy ko'rsatkichlarni aniqlashda arifmetika amallarining to'g'ri qo'llanilganligi kabilar. Hisobot shakllari va hujjatlarda hech qanday tuzatish yoki raqamlarni o'chirib qayta yozish aslo mumkin emas. Hisobot shakllari direktor va bosh buxgalter tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

2. Turli hisobot shakllarida beriladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar summasining bir - biriga mos kelishi. Ushbu tekshirishning mohiyati quyidagidan iborat. Bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar turli hisobot shakllarida beriladi va binobarin, hisobot tuzishda ana Shu iqtisodiy ko'rsatkichlar summasi bir - biriga to'g'ri kelishi shart.

3. Hisobot ma'lumotlarini auditij jihatdan qayta ishlashning usullaridan biri auditij jadvallarni tuzishdir. Jadvalga audit qilinadigan ko'rsatkichlarning baza va amaldagi darajasi kiritiladi, mutlaq farq aniqlanadi, ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati aniqlanadi hamda tegishli xulosa yoziladi. Auditij jadvallar ustunliga va afzalligi Shundan iboratki, u ham bo'lsa, ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishi juda ham aniq ko'rgazmali tarzda namoyon bo'ladi.

Auditning so'nggi bosqichi uning natijalarini rasmiylashtirish hisoblanadi. Audit natijalariga asoslangan holda ma'lumotnoma yoki izohnoma yoziladi. Auditij jarayonni muvaffaqiyatli o'tkazishning garovi uni har tomonlama puxta tashkil qilishdir. Auditij jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) Audit dasturini tuzish.
- 2) Audit uchun ma'lumotlar tanlash va ularni tekshirish.
- 3) Ko'rsatkichlarni tanlash va hisoblash.
- 4) Ko'rsatkichlarni auditij jihatdan qayta ishlash va taqqoslash.

5) Audit natijalarini umumlashtirish va korxona hamda tashkilotlar faoliyatida sodir bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda aniqlangan ichki xo'jalik rezervlaridan foydalanish²⁴.

Dastursiz bajariladigan audit, yohud o'rganiladigan masalalar ko'lamini aniq belgilamaslik o'z navbatida audit natijalariga putur etkazadi. Shuning uchun auditni ishlarini tashkil qilish borasidagi eng mas'uliyatli vazifa- audit dasturini tuzish hisoblanadi.

Audit dasturining hajmi va mazmuni undan qo'zlangan maqsadga bog'liq. Masalan, audit har tomonlama o'tkazilishi mumkin, bunda bankning jalb qilingan mablag'lari manbai to'liq o'rganiladi yoki ishning qandaydir bir tomonini o'z ichiga olgan tematik (tanlanma) audit bo'ladi, jumladan, chet el banklaridan olinadigan kreditlar auditi.

Audit uchun materaillarni tayyorlashda joriy hisobda berilmaydigan ma'lumotlarni aniqlash katta ahamiyatga molik. U yoki bu axborotlar manбайдan foydalanish audit dasturini tuzishda xisobga olinishi kerak. Ma'lumotlarning to'g'riligini va aniqligini tekshirishdan so'ng ularni qayta ishlashga o'tiladi. Audit qilinayotgan ma'lumotlarning taqqoslanuvchanlik, ishonchlilik va tezda olinishga katta ahamiyat berish zarur.

3.2. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kredit operatsiyalarini audit qilish metodikasi

Milliy bankning Toshkent shaxar filialida chet el banklaridan olinadigan banklararo kreditlar hisobidan o'z mijozlariga kredit berish uchun investitsiya loyihasi mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy holatdan kelib chiqib, ancha keng miqyosda asoslab berilishi muhimdir. Investorlarning korporativ va investitsion maqsadlari har doim ham mamlakatning milliy va ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan mos kelavermaydi. Shuning uchun loyihaning sof foydalilik darajasini milliy va ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan baholash talab etiladi. Bunday baholashga

²⁴ Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. Россия . - М.: ФОРУМ, 2010. – 192 с.

investorlar juda ham qiziqmasalarda, investitsiya loyihasi texnik-iqtisodiy asosiga jamiyatning unga investitsiyalarning kiritilishiga bo'lgan munosabati auditini ham kiritish zarur. Chunki iqtisodiy muhit va uning kelajakdagi rivojlanishi loyihaning moliyaviy jihatdan amalga oshishiga sezilarli darajada ta'sir etishi mumkin. Ikkinchidan esa, investitsiya loyihasining amalga oshishi evaziga olinadigan daromad jamiyatning rivojlanishi uchun argument (asos) sifatida xizmat qiladi.

Bankning investitsiya loyihasini iqtisodiy jihatdan baholashga bo'lgan qiziqishiga turli hil sabablar mavjud. Masalan, rivojlangan bozorlarning yo'qligi sharoitida mavjud mexanizm resurslarning optimal taqsimlanishiga kafolat bera olmaydi. Baholashda, Shuningdek, loyihaning iqtisodiyotga bo'lgan bevosita ta'sirlari (import, eksport, ish bilan bandlik, xorijiy valyuta kursi, talab va taklif) ham o'rganiladi. Qarz mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihasining kompleks ekspertizasi loyihaning texnik ekspertizasidan, o'rnatiladigan asbob-uskuna texnik xarakteristikalarini va texnologiyasini o'rganishdan, loyiha bo'yicha marketing va informatsion izlanishlarni olib borishdan, ishlab chiqariladigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganishdan, raqobatchilar muhitini audit qilishdan boshlanadi.

Investitsiya loyihasining moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasida loyihani amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi audit qilinadi, pul mablag'lari oqimi kuzatiladi, kapital xarajatlar qiymati o'zgarishining real indeksleri bazasida shartnomaviy baholarni o'rnatishning to'g'riligi aniqlanadi va ma'qul moliyalashtirish sxemasini tanlash bo'yicha maslahatlar beriladi. Kompleks ekspertizaning navbatdagi bosqichida investitsiya loyihasidagi risklar darajasi aniqlanadi va ularni kamaytirish chora-tadbirlari belgilanadi, Shuningdek qarz oluvchi shaxsga tegishli asosiy vositalarni, bino-inshootlarni, qurilmalarni hamda ta'minlanganlik sifatida taqdim etiladigan vositalarini baholash ishlari amalga oshiriladi.

Kompleks ekspertizadagi audit ishlarining so'nggisi esa asbob-uskuna etkazib beruvchilar bilan imzolangan shartnomalarning mavjudligi, keliShuvlar

asosida erkin ayirboshlanadigan valyuta evaziga tashqi davlatlardan asbob-uskuna va materiallarni sotib olish masalalari holati tekshiriladi, asbob-uskuna etkazib berish va o'rnatish muddatlarining ishlab chiqarish rejasi bilan mutanosibligi o'rganiladi.

Investitsiya loyihasining kompleks ekspertizasi yakunida loyihani moliyalashtirish uchun qarz mablag'larni ajratish bo'yicha xulosa tayyorlanadi va xulosa ijobiy deb hisoblansa, uzoq muddatga korxonaga mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Milliy bankning Toshkent shaxar filialida chet el banklaridan olinadigan banklararo kreditlarni audit qilganda kredit resurslarining manbalari, kreditlarning (umumiy kredit portfelining) tarmoqlar, hududlar bo'yicha yunaltirilganini, hamda mijozlarning mulk shakllari bo'yicha audit qilish mumkin. Tijorat banklarining kredit portfeli manbai bulib, o'z mablag'lari (xususiy kapitali) va chetdan jalb qilingan mablag'lar bo'lishi mumkin. Banklarning o'z mablag'lari manbai barcha mablag'laridagi hissasi qanchalik katta bulsa, bank Shunchalik moliyaviy mustahkam buladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati, Respublika Markaziy banki tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar tijorat banklari o'z mablag'larining mutloq summalarining mutnazam ravishda ko'payishi va ularning barcha mablag'lardagi hissasining oshishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlarga qaraganda so'nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali 2 barobar ko'paydi. Birgina o'tgan yilning o'zida etakchi banklarning nizom jamg'armalarini oshirish uchun qo'shimcha ravishda 500 milliard so'mdan ortiq davlat mablag'lari ajratildi.

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi qat'iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo'lib, ayni paytda u belgilangan qator normativlar bo'yicha mutsahkam pozitsiyalarga ega.

Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar

depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va Shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir"²⁵ degan edi.

Tijorat banklari barcha tarmoq korxonalariga kreditlar beradi. Lekin kreditlarning tarmoqlar bo'yicha berilishini audit qilganda, Respublikadagi aktsiyador tijorat banklarining ko'pi tarmoq xususiyatlari bo'yicha tashkil etilganligini va o'sha tarmoq ustuvor ekanligini hisobga olish zarur bo'ladi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Milliy bankning Toshkent shaxar filialining umumiy kredit portfeli audit²⁶

№		Kredit miqdori, foizlarda		
		2009y	2010y	2011y
1	Tijorat banklaridan	0,48	0,27	1,30
2	Jismoniy shaxslar	2,37	3,00	10,60
3	Davlat korxonalari	60,73	53,60	27,30
4	Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar	22,24	23,57	23,15
5	Xususiy korxonalar	14,18	19,56	37,65
	Jami	100,0	100,0	100,0

Tijorat bank kreditlarini qarzдорlar bo'yicha ham guruhlash mumkin. Bunda davlat korxonalari, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar, xususiy korxonalar va jismoniy shaxslarga berilgan kredit mablag'lari bo'yicha audit qilish mumkin. Tadqiqotchilar ma'lumotlariga qaraganda bankning umumiy kredit portfelinin g katta qismi -27,3 % davlat korxonalari ga (2011 yil boshiga) tug'ri keladi. Lekin xususiylashtirish va korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish siyosatining amalga oshirilayotganligi tufayli bu korxonalarga berilgan kreditlar miqdori yildan-yilga

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2011-йилнинг асосий яқунлари ва 2012-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. ("Халқ сўзи" газетаси, 2012 йил 20 январь, №14 (5434)).

²⁶ Ўзбекистон Республикаси ТИФ Миллий банки Тошкент шаҳар филиали 2009-2011 йиллардаги йиллик ҳисоботларидан шартли равишда олинди

kamayib bormoqda. Natijada, davlat korxonalariga berilgan kreditlar umumiy kreditlar hissasiga 2009 yil 31 dekabrda 60,7 % dan 27,3 % gacha (2011 yil 31 dekabr xolatiga) tushib qolgan. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan kreditlar 15,2 foizni tashkil etadi va ushbu yillarda sezilarli o'zgarish bulmagan.

Milliy bankning Toshkent shaxar filiali ning kredit partfelida xususiy korxonalar va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar hissasi ortib bormoqda. 2004 yil 31 dekabr holati xususiy korxonalarga berilgan kreditlar banklar kreditlar portfelining 14,2 % ini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2009 yil 31 dekabr xolatiga (2009 yil boshiga) 37,6 foizgacha ya'ni 2,6 baravar oshgan. Bu Hukumatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan iqtisodiy tadbirlari natijasida bu sohaning tez suratlar bilan rivojlanib borayotganligining natijasidir. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ham 2009 yil 31 dekabr holatidagi 2,4 foizdan 2011 yil 31 dekabrda 10,6 % gacha oshgan.

Bank kreditining ta'minlanganligi kredit berish tamoyillaridan biridir. Mijozlar kreditlarning ta'minlanganligini mol-mulkini garovga quyish, boshqa xujalik yurituvchi sub'ektlarning kafolati hamda sug'urta kompaniyalarining kreditni sug'urtalash yuli bilan amalga oshiradilar. Kreditni ta'minlanganlikda mijozlarning mol-mulkini garovga quyish juda kup ishlatiladi. Mijozning binolari, inshootlari, asbob-uskunalar (turli xil kuchmas mulklari), transport vositalari, tovar-moddiy boyliklari garov bulishi mumkin. Mulkni garovga quyishda, uzgarib turuvchi bozor narxi sharoitida, mulkni tug'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Milliy bankning Toshkent shaxar filiali ning hisobotiga kura 2010 yilda kreditlarining ta'minlanganligi 68,3 foizi mulkni garovga quyish bilan, 21,0 % boshqa sub'ektlarning kafolatlari bilan va 10,7 % esa ta'minlanganlikning boshqa turlari bilan amalga oshirilgan.

Bank kreditlarini mulkni garovga quyishda, bu mulklarni turlarini, ularning sifat holatlarini yaxshi urganish lozim. Mijozning garovga quyilayotgan mulkini mahsus tayyorgarlikga ega bo'lgan mustaqil baholovchi mutaxassislar baholab,

ularning qiymatini aniqlaganliklari ma'qul. Amaldagi Nizom»²⁷ da garov mavzusi sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar o'rnini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarurligi kursatilgan.

Tijorat banklari kreditlarining ta'minlanganligini audit qilganda, garovga quyilgan mulkning turlari bo'yicha, ularning o'zgarishi bo'yicha, hamda ta'minlanganlik turlari bo'yicha o'zgarishni urganish lozim. Hozirgi paytda sug'urta tizimining rivojlanganligini e'tiborga olib, kreditorlarning sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalash yuli bilan ta'minlanganlikni amalda qullash muhim ahamiyatga ega.

3.3. TIF Milliy bank Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlarni audit qilish metodikasini mukammallashtirish yo'llari

Yuqoridagi paragraflar ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlari hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotining soha va tarmoqlaridagi investitsiya loyihalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Rivojlangan davlatlar amaliyoti Shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning eng maqbul usuli bu bevosita xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb etishdir.

Bugungi kunda respublikamizga bunday investitsiya va kreditlarni jalb etish borasida bir qator muammolarning mavjudligi, ular o'rniga hukumat kafolati ostidagi chet el qarzlari va chet el banklarining kreditlarini jalb etishni taqozo etmoqda. Bu boradagi muammolarni biz bitiruv malakaviy ishi mizning yuqoridagi boblarida ko'rib chiqdik va bu boradagi o'z fikr va takliflarimizni ilgari surdik.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash zarur ekan bu sohani rivojlantirish va takomillashtirish lozim bo'ladi. Chunki iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari investitsiya loyihalarini

²⁷ УзР МБ томонидан тасдиқланган «Тижорат банклари кредит сиёсатига қўйиладиган талаблар туғрисида» ги Низом» 2000 йил 22 феврал

moliyalashtirish albatta, mamlakatning tezroq rivojlanishi hamda barqarorlashuviga olib keladi va uning istiqbolini yuksaltiradi.

Investitsiya muhitining takomillashib borishi har bir davlatning investitsiya sharoiti uning siyosiy va iqtisodiy barqarorligidan kelib chiqadi va bu investitsiya muhitini vujudga keltiradi. Chet el banklari bilan hamkorlikning rivojlanishi mamlakat investitsiya muhitining yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki chet el banklari bilan hamkorlikning kuchayishi mamlakatga bo'lgan ishonch va qiziqishni orttiradi. Investitsiya muhitini yaxshilaydigan omillarga quyidagilar kiradi: investitsiyalardan foydalanishda soliq, bojxona imtiyozlarini oshirish, pulning qadrsizlanishi darajasini pasaytirish, milliy valyutaning to'liq erkin almashinuvini ta'minlash, chet el investorlarining o'z daromadlarini olib chiqib ketishini ta'minlash, axborot almashinuvi darajasini oshirish, hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirish, infratuzilma institutlari faoliyatini takomillashtirish, investitsiya siyosatining iqtisodiy mohiyatini oshirish va boshqalar.

Mamlakatga xorijiy investitsiyalar va chet el banklari kredit yo'nalishlarining kirib kelishi Shu xududdagi investitsiya siyosatning huquqiy asoslarini takomillashtiradi. Chunki bunday munosabatlarda tomonlarning o'zaro manfaatlari to'qnashadi va bu ularning o'zaro murosaga kelishiga olib keladi hamda bunday murosalar xalqaro darajadagi huquqiy hujjatlar orqali belgilanadi va tartibga solinadi. Bunday munosabatlarning davomiyligi tez fursatlar ichida mamlakatda investitsiya faoliyatining samarali huquqiy va iqtisodiy asosini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda respublikamizda chet el banklarining kredit yo'nalishlari mablag'lari asosan mamlakatga zamonaviy texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalarni keltirishga va Shu asosda jahon bozorlari standartlariga mos keladigan, ichki bozor talablarini qondiradigan va eksportga yo'naltiriladigan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda.

Bunday ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi nafaqat mahsulot ishlab chiqarish orqali mamlakat ishlab chiqarish va eksport salohiyatining rivojlanishiga,

balki yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi orqali ishsizlik muammosining hal etilishiga, korxonalarning rivojlanishiga, aholi daromadlarining ko'tarilishiga, davlat byudjeti daromadlarining oshishiga, mamlakat ichki bozorining turli xil tovarlar bilan ta'minlanishiga, mahsulot eksporti orqali valyuta tuShumlarining ko'payishiga, mahalliy xom-ashyolarning to'liq qayta ishlab chiqarishga yo'naltirilishiga, iqtisodiyotda raqobat, talab va taklif, narx-navo kabi bozor mexanizmlarining amal qilishiga, xullas makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga olib keladi.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlari mablag'lari asosan iqtisodiyotning kimyo, neft va gaz, elektr-energiya, og'ir va engil sanoat, mashinasozlik, xom-ashyo va materiallarga birlamchi ishlov berish, qayta ishlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalariga yo'naltirilmoqda. Bu esa mamlakatning agrar iqtisodiyotdan asta-sekin industrlashgan iqtisodiyot sari o'tib borayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakat iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadigan soha va tarmoqlarning bir vaqtning o'zida baravar rivojlantirilayotganligi bu sohada strategik rejalar va dasturlarning mavjudligidan darak beradi. Shuningdek, mamlakatning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi, aholining ko'p qismi qishloq joylarda yashashligini inobatga olib, hukumatimiz tomonidan sanoatni qishloqqa olib kirish, qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq joylarda tub islohotlarni amalga oshirish ishlari ham olib borilmoqda. Iqtisodiyotning bir sohasining rivojlanishi ikkinchi bir sohaning ham rivojlanishini talab qilishini inobatga olib aytish mumkinki, sanoatning rivojlanishi albatta qishloq xo'jaligining ham rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakatda investitsiya muhitining takomillashib borishi, chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlari mablag'larining mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi albatta investitsiyalarni boshqarishni, ularni baholash usullarining takomillaShuvini, ularning eng samaraliroq manbalarini izlab topishni

va joylashtirishni, yangiliklarni amaliyotga tadbiq qilishni, Shu bilan bir qatorda ushbu soha rivojlanishiga xizmat qiluvchi infratuzilma institutlarning o'z-o'zidan rivojlanishini taqozo qiladi. Albatta bunday ishlar boshida davlat turadi va u bunday o'zgarishlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini ta'minlaydi. Bunday o'zgarishlar natijasida investitsiyalarning muqobil usuli bo'lmish lizing munosabatlari, kredit uyushmalari, nobank kreditlash muassasalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari va fondlari kabilar faoliyati rivojlanib va takomillashib boradi.

Chet el banklari bilan hamkorlikning rivojlanib borgan sari xorijiy hamkorlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishi va ishonchi ortib borishini biz yuqorida ta'kidlagan edik. Bu esa o'z navbatida Chet el banklarining kredit yo'nalishlarini hukumat kafolatisiz, unchalik murakkab bo'lmagan shartlar asosida, uzoq muddatlarga, kichik foiz stavkalarida o'zlashtirish imkoniyatini berish bilan bir qatorda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi yirik investitsiya loyihalarini sindikatlashgan shaklda kreditlash imkoniyatini ham oshiradi.

Sindikatlashgan kreditlashning bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, ular qatoriga katta-katta loyihalarni moliyalashtirishning imkoni paydo bo'lishini, mahalliy banklar risklarining kamayishini, banklarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalashda bevosita qatnashishini, mamlakatga xorijiy kreditlar bilan bir qatorda bevosita xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini kiritish mumkin. Bundan tashqari bunday investitsiyalarning kirib kelishi mamlakatda innovatsion loyihalarning moliyalashtirilishiga olib keladi. Bu esa respublikadagi ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyatini rag'batlantiradi va ularni ham rivojlanishga undaydi. Xullas, chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlari mablag'larining milliy iqtisodiyotga jalb qilinishi iqtisodiyotning birmuncha yangi va rivojlanmagan tarmoqlarining ham rivojlanishiga olib keladi.

Bugungi kunda chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlari mablag'larini yanada kengroq jalb etish va samaraliroq joylashtirish uchun

bizningcha quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

Birinchidan, qulay investitsiya muhitini yaratishning asosiy shartlaridan bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik investitsion faoliyat investitsiya jarayonlari va xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq qonunchilikni isloh qilish lozim, ya'ni ularning amal qilish jarayonlarini hayotga tatbiq etish lozim. Bunday ishlar jumlasiga sindikatlashgan kreditlar bo'yicha va lizing munosabatlari, Shuningdek, xorijiy investorlar va ularning huquqlarini himoya qilish, chet el banklari bilan xamkorlikni rivojlantirish bo'yicha mavjud qonunchilikni va me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish masalalari ham kiradi.

Ikkinchidan, mamlakatda pul-kredit hamda soliq va bojxona siyosati barqarorligi va samaradorligini ta'minlash lozim. Bunday ishlar jumlasiga milliy valyuta qadrini ko'tarish, xorijiy valyutalarning erkin ayriboshlanishini ta'minlash, soliq stavkalarini pasaytirish, soliq imtiyozlarini ko'paytirish, bojxona bojlari va to'lovlaridan imtiyozlar berish kabilar kiradi. Bu kabi tadbirlarning tezroq hal etilishi davlatning bu boradagi ishlarga o'z vaqtida etibor berishi va imkon qadar tezroq samarali va oqilona siyosat yuritishiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, chet el banklari bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali respublikamizga jalb qilinayotgan chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlarining kreditlash shartlarini engillashtirishga erishish lozim. YA'ni, bu borada chet el banklarining marjalarini kamaytirish, imtiyozli davrni uzaytirish, xorijiy sug'urta kompaniyalari sug'urta kafolati ostida kirib kelayotgan liniyalar bo'yicha sug'urta mukofoti summasini kamaytirish, bir martalik komissiya va Shunga o'xshash shartlarni qisqartirishga erishish lozim. Buning uchun esa chet el banklarining ishonchini oqlash, ularning mablag'larini o'z vaqtida qaytarishni kafolatlash, Shuningdek, ularning bilvosita daromadlarini oshirish yo'llarini ta'minlash lozim.

To'rtinchidan, chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlari mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda garov ta'minotini ta'minlash maqsadida qarz oluvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarga kafil bo'ladigan, kreditning

qaytmasligidan sug'urtalaydigan sug'urta tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish lozim. Chunki, kreditlash shartlaridagi 120 foizli garov ta'minotini kamaytirib bo'lmasligini hisobga olib garov ta'minoti berishi mumkin bo'lgan sug'urta kompaniyalari, fondlar kabi yangi garov shakllarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, mamlakatda barcha sohalar bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi, marketing tadqiqotlari bilan Shug'ullanuvchi, axborot va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga erishish lozim. Chunki bugungi kunga kelib investitsiyalarni moliyalashtirish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda marketing va axborot ishlari talab darajasida emasligi oqibatida bir qator muammolar paydo bo'lmoqda. Bu muammoni hal etishning yo'llaridan biri mamlakat tijorat banklarida, «Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi»ning joylardagi bo'limlarida marketing va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi bo'limlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlarini jalb etish bo'yicha uzoq muddatli maqsadli dasturlar asosida iqtisodiyotning mehnattalab tarmoqlariga, ilmtalab va kapitaltalab sektorlariga kengroq va samaraliroq jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, davlat investitsiya dasturi orqali moliyalashtirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirish maqsadida davlat investitsiya dasturini ishlab chiqishda bevosita xorijiy investitsiyalar hamda hukumat kafolatisiz kirib kelayotgan chet el banklari resurslari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha risklarni minimallashtirish masalalarini har tomonlama o'rganish zarur va bu jarayonlarga ham chuqur marketing tadqiqotlarini tadbqiq etish lozim.

Yuqoridagi audit natijalaridan Shunday xulosa qilish mumkinki, milliy iqtisodiyotda har bir soha va tarmoqning har tomonlama mukammal ravishda rivojlanishi, uning huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hamda tashkiliy jihatlarining

ta'minlanishi bevosita olib borilayotgan islohotlarning jadallashuvi va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham mamlakatga tijorat banklari tomonidan chet el banklarining banklararo kredit yo'nalishlarini jalb qilishni takomillashtirish uchun iqtisodiyotning har bir soha va tarmoqlarida o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish hamda ushbu islohotlarning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qilishiga erishmoq lozim.

Xulosa va takliflar

Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda tijorat banklarida banklararo kreditlarning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish hamda xalqaro tajribalar talablariga yaqinlashtirish maqsadida mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Milliy bankning Toshkent shaxar filialida kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'lishidir. Bu esa o'z navbatida, uning qarzдорlari va aktsiyadorlari foydasini ko'paytiradi va faravonligini oshiradi. Aniq bir tijorat bankining kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilarni belgilab olinishi lozimligi asoslab berildi.

2. Milliy bankning Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar bo'yicha kreditlash jarayonida bank siyosati bank oldidagi majburiyatlarni bajara oladigan mavjud yangi mijozlarni kredit resurslari bilan ta'minlash, sinf darajasidagi kreditlarni taqdim etishni kengaytirish hisoblanadi. Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda xalqaro standartlar miqyosida mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga intiladi. Shuning uchun bank kredit siyosatini kreditlash tamoyillariga muvofiq qattiq tartibda amalga oshirilishi lozim deb hisoblandi.

3. Milliy bankning Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bu qarz oluvchi bankning o'rnatilgan miqdordagi kredit ta'minotini qoplay olmasligi muammosidir. Bu muammoni xal etish uchun avvalo respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini zamonaviylashtirish, ular tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari turlarini kengaytirish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni kamaytirish lozim bo'ladi.

4. Milliy bankning Toshkent shaxar filialida ushbu muammoning mantiqiy davomi sifatida Shuni ham ta'kidlash lozimki kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan xukumat kafolatini kamaytirish lozim, Chunki hukumat kafolati ostida

berilayotgan kreditlarning ko'pchilik qismi o'zini oqlamasligi holatlari kuzatilmoqda, Shuningdek, kreditlar qaytmagan hollarda tijorat banklari ushbu summani banklardan undirib olishlari qiyin kechmoqda. Bu holat banklarning kredit portfeli sifatiga, aktivlarining holatiga va banklarning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun banklar tomonidan kreditlar uchun ta'minotchi bo'la oladigan mahsus fondlarni tuzish va takomillashtirish, mavjud sug'urta kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirishga yordam ko'rsatish, o'zi garovga kafil bo'lib chiqishdan ko'ra samaraliroqdir.

5. Milliy bankning Toshkent shaxar filialida banklararo kreditlar ham chet el banklaridan olingan kreditlar ham bitta balans hisobvarag'ida yuritilmoqda. Bizning fikrimizcha, chet el banklaridan olingan kreditlar hisobini takomillashtirish, ularni audit qilish uchun aniq va to'liq malumotlar olish maqsadida amaldagi hisobvaraqlar rejasiga 21608-«Chet el banklaridan olingan qisqa muddatli kreditlar» va 22008 -«Chet el banklaridan olingan uzoq muddatli kreditlar» balans hisobvaraqlarini kiritish lozim. Shuningdek, chet el banklaridan olingan kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarni ham alohida 53107- «Chet el banklaridan olingan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar» va 54107 - «Chet el banklaridan olingan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar» hisobvarag'ida aks ettirilishi lozim.

Bundan tashqari, chet el banklaridan olingan kreditlar hisobidan mijozlarga berilayotgan kreditlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar va kredit berish bo'yicha tayyorlov ishlari uchun vositachilik daromadlari foizli daromadlar tarkibiga o'tkazilishi maqsadga muvofiq emas. Bunday daromadlar bank tomonidan kredit majburiyati muddati davomida amortizatsiya qilinib, foizsiz daromadlar (komission daromadlar) sifatida hisobga olib borilishini taklif qilamiz. Bu o'z navbatida, bank daromadlari tarkibi va ularni audit qilish uchun aniq va to'liq malumotlar olish imkonini beradi hamda buxgalteriya hisobini 18-sonli MHXS (Tushum) talablari asosida tashkil qilinishini ta'minlaydi.

6. Milliy bankning Toshkent shaxar filialida chet el banklari tomonidan banklararo kredit yo'nalishlari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihasi mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy holatdan kelib chiqib, ancha keng miqyosda asoslab berilishi muhimdir. Chet el banklarining korporativ va investitsion maqsadlari har doim ham mamlakatning milliy va ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan mos kelavermaydi. Shuning uchun loyihaning sof foydalilik darajasini milliy va ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan baholash talab etiladi. Bunday baholashni amalga oshirishda investitsiya loyihalarini texnik iqtisodiy asoslash jarayonida iqtisodiyotga investitsiyalarning kiritilishiga bo'lgan munosabati auditini ham kiritish zarur. Chunki iqtisodiy muhit va uning kelajakdagi rivojlanishi loyihaning moliyaviy jihatdan amalga oshishiga sezilarli darajada ta'sir etishi mumkin. Ikkinchidan esa, investitsiya loyihasining amalga oshishi evaziga olinadigan daromad jamiyatning rivojlanishi uchun asos sifatida xizmat qilishi lozim. Buning uchun esa loyihalarni ishlab chiqish va asoslashda unga makrodarajada yondashish lozim.

Shunday qilib, mazkur mavzu yuzasi buyicha bildirilgan taklif va tavsiyalarimizning TIF Milliy bankning Toshkent shaxar filiali amaliyotiga tadbqiq etilishi olingan kreditlarning buxgalteriya hisobi va auditini takomillaShuviga olib keladi hamda tijorat banklari faoliyatini boshqarishda ijobiy samaradorlikka erishishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2001.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonuni.-T.: 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1995y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 14 dekabrda R-3539-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat Dasturi
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi haqida"gi Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi PQ-670 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 aprelda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1317- sonli Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatgichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438 sonli Qarori

10. “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta’minlashga oid qo‘shimcha chor-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4057-sonli Farmoni. –T.: 28.11.2008y.

II. Prezident asarlari

11. O‘zR Prezidenti I. Karimovning 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi: 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, (“Халқ сўзи” газетаси, 2012 йил 20 январь, №14 (5434))

12. O‘zR Prezidenti I. A. Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi, 2011 yil 22 yanvar, № 16 (5183).

13. Karimov I. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: “O‘zbekiston”. 2009y. -56-bet

14. Karimov I. A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo‘lishi darkor. Xalq so‘zi, 2006 yil 25 fevral.

III. Cohaga oid me‘yoriy hujjatlar

15. O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma. O‘zR AVda 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro‘yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

16. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo‘riqnoma. [Yangi tahrir]. O‘zR AVda 2008 yil 27 iyunda 1831-son bilan ro‘yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 17 maydagi 12/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

17.O'zbekiston Respublikasi banklarida KBTEBning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 15.07.2005 yilda 1496-son bilan ro'yxatga olingan (yangi tahriri).

18. "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi" Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 13.12.2004 yilda 1122-2-son bilan ro'yxatga olingan. (yangi tahriri).

19. "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risida" nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.01.2004 yilda 1297-son bilan ro'yxatga olingan.

20."O'zbekiston Respublikasida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 17.12.2004 yilda 1134-son bilan ro'yxatga olingan. (yangi tahriri).

21."O'zbekiston Respublikasida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.01.2003 yilda 1199-son bilan ro'yxatga olingan.

22.O'zRMB naqd chet el valyutasiga oid operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 15.04.2004 yilda 957-1-son bilan ro'yxatga olingan.

23.Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 17.12.2004 yilda 1435-son bilan ro'yxatga olingan.

24.Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 30.01.2004 yilda 1306-son bilan ro'yxatga olingan.

25.O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisob varaqlari rejasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 13.08.2004 yilda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan (yangi tahriri).

26.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom. 02.10.2004.

27. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 28.03.2003 yilda 662-3-son bilan ro'yxatga olingan.

28. Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisobotlari to'g'risidagi Nizom. 19.07.2003 y.

29. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalariga doir qonunchilik hujjatlari to'plami. – O'zbekiston, 2003.

30. Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 03.08.2000 yilda 953-son bilan ro'yxatga olingan.

31. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 20.07.1999 yilda 776-son bilan ro'yxatga olingan.

IV. Asosiy adabiyotlar

32. Жумаев Н., Абдурахмонов Қ, Жахон молиявий-иқтисодий инқирози: сабаблар ва уни бартараф этиш муаммолари.-Т.: “Академнашр”, 2011, 156 бет.

33. Abduvaxidov F.T. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. –Т.: “Iqtisodiyot” nashriyoti. 2010. 242 bet.

34. Маҳмудов Н.М, Маджидов Ш.А. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 86 б.

35. Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. – М.: ФОРУМ, 2010. – 192 с.

36. Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с.

37. Ендовицкий Д.А. Учет ценных бумаг: Учебное пособ. - 2-е изд стер.- М.: КНОРУС, 2009.- 336 с.

38. Воронин В.П. и др. Учет ценных бумаг: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 336 с.

39.Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазовой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. - 400с.

40.Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К », 2008. – 288 с.

41.Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. -Москва.: 2008, стр. 209

42.Муругова И.А. Операционная техника и учет в банках. Учебный пособие. –Т.: ТФИ, 2008. -36 стр

43.Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в комерческих банках. -Москва.: 2007, стр. 399.

44.Усатова Л. В., Сероштан М. С, Арская Е. В. Бухгалтерский учет в коммерческих банках: Учеб. пособ. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: «Дашков и К°», 2007. — 404 с.

45.Мощенко Н.П. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: Учеб. пособие. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 272 с.

46.Шпаков Л. В., Барулина Е. В. Бухгалтерский учет как пользоваться МФСО. «Альфа-Пресс». –М.: 2006. -37 с

47.Маренков Н.Л. Международные стандарты бухгалтерского учета, финансовой отчетности и аудита в Российских фирмах. - М.: Едиториал УРСС, 2005. - 143 с.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

48.ЎзР Президенти И.Каримовнинг 2012-йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади: 2011-йилнинг асосий якунлари ва 2012-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. –Т.: “O'qituvchi” НМИУ, 2012. -272 бет.

49.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010.

50.Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O'zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng jamoatchilik bilan uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: "Iqtisodiyot", 2010. - 148 bet.

51.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2010. – 146 bet.

52.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: "Iqtisodiyot" 2010.

53.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU. Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev. –T.: Iqtisodiyot, 2009. -120 b.

54.Подольский В.И., Савин А.А. Аудит: учебник. – М.: Юрайт, 2010.– 605с.

55.Двадцать вторые международные Плехановские чтения. Тезисы докладов. –Москва.: 2009, 10 апреля 2009г

56. Мерцалова А.И. Учет операционная деятельность в кредитных организациях: кассовые, расчетные, депозитные и кредитные операции: учебное пособ.- М.: КНОРУС, 2009.- 356 с.

57. Жарковская. Е.П. Банковское дело: Учеб. - М: «ОМЕГА -Л», 2008 – 476 с.

58. Курсов В.Н., Яковлев Г.А. Бухгалтерский учет в коммерческом банке: Новые типовые бухгалтерские проводки операций банка: Учеб. пособ. — 10-е изд., испр. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. — 277 с.

59. Черкасов В.К. Финансовый анализ в коммерческом банке. Учебное пособие для вузов. - М.: Изд. «Консалтбанкир», 2006. - 320 с.

60. Умаров З. Тижорат банкларига молиявий натижалар ҳисоби ва таҳлилининг назарий-услубий масалалари. –Т.: ЎзР Банк-молия академияси. ном. дисс. 2010. -132 бет

61. Мукумов З. Инновацион фаолият харажатлари ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш масалалари. –Т.: ЎзР Банк-молия академияси. ном. дисс. 2010. -143 бет

62. ЎзРда иқтисодий таҳлил ва аудитнинг ривожланиш муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: ТДИУ нашриёти. 2001 й.

63. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини, истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Анд МИИ “Андижон” 2011.

64. Мамлакат иқтисодиётини инновацион ривожлантириш шароитида тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Т.: Банк молия академияси. Молия нашрияти. 2010 й.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

65. «Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси» журнал. –Т.: 2007-2012 йиллар

66.«Бозор, пул ва кредит» журнал. –Т.: 2007-2012 йиллар

67.Ўзбекистоннинг 2010 йилдаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиши кўрсаткичлари. –Т.: Ўзбекистон, 2011.

VII. Internet saytlari.

68.www.bankclub.ru/rankings-bk.htm Po aktivam

69.www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm Po kapitalu

70. «Norma” 2012.

71.“Pravo” 2012.